

Muzaffar Naimov

OILAVIY
MAROSIM
QO'SHIQLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

NAIMOV MUZAFFAR URINOVICH

**OILAVIY MAROSIM
QO‘SHIQLARI**

**(60111300-Musiqqa ta‘limi yo‘nalishi talabalari uchun
“O‘zbek xalq musiqqa ijodi” fanidan o‘quv qo‘llanma)**

Farg‘ona - 2026

UO'K : 398.83(075.8)

KBK : 82ya73

N 19

NAIMOV MUZAFFAR URINOVICH

Oilaviy marosim qo'shiqlari [O'QUV QO'LLANMA] Farg'ona:
2026. "Classic" nashriyoti- 2026 74-b.

ISBN: 978-9910-231-62-9

S.Qurbonov

D.Avlaqulov

Taqrizchilar:

Termiz davlat universiteti "Musika ta'limi"
kafedrasida Dotsenti

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur "Oilaviy marosim qo'shiqlari" o'quv qo'llanmasi 60111300 - "Musika ta'limi" yo'nalishi talabalari uchun "O'zbek xalq musika ijodi" faniga mo'ljallangan bo'lib, bunda talabalar o'zbek marosimlari tasnifi hamda oilaviy marosim qo'shiqlarini chuqur o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, qo'llanmadan Surxon oilaviy marosimlarining o'tkazilish tarzi va qo'shiqlarning matni, notalari o'rin olgan bo'lib talabalar tomonidan amaliy bilim va ko'nikmalarini boyitishga xizmat qiladi.

Аннотация

Учебное пособие «Семейные обрядовые песни» предназначено для студентов специальности 60111300 - «Музыкальное образование» по предмету «Узбекское народное музыкальное творчество», где студенты получают возможность углубленно изучить классификацию узбекских обрядов и семейных обрядовых песен. В пособие также включена проведения семейных обрядов Сурхана, тексты и ноты песен, что послужит обогащению практических знаний и навыков учащихся.

Annotations

The study guide "Family Ritual Songs" is intended for students majoring in 60111300 - "Music Education" for the course "Uzbek Folk Musical Art", where students will have the opportunity to deeply study the classification of Uzbek rituals and family ritual songs. The guide also includes materials on the performance of family rituals in Surkhan, as well as song lyrics and sheet music, which will contribute to enriching the students' practical knowledge and skills.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2025-yil 02-dekabrda o'quv adabiyotini ekspertizadan o'tkazish ma'lumotnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

9027



ISBN: 978-9910-231-62-9

UO'K : 398.83(075.8)
KBK : 82ya73

"Classic" nashriyoti- 2026

OILAVIY MAROSIM QO'SHIQLARI VA AYTIMLARI

Marosimlar, milliy an'ana va urf-odatlarimiz ildizi ajdodlarimizning tarixan bosib o'tgan turmush tarzi, yashash sharoiti bilan uzviy bog'langan holda vujudga kelgan. Oilaviy marosimlar ma'lum tarixiy davrni o'z ichiga olgan holda xalqimizning ma'naviy dunyoqarashi, madaniy saviyasi, yashash tarzini anglashga yordam beribgina qolmay, asrlar davomida tobora mustahkamlanib, sayqallanib, rivojlanib ajdodlarimizdan bizga bebaho xazina sifatida yetib kelgan.

An'alarimiz, urf-odatlarimiz va udumlarimiz tarkibidan o'rin olgan xalqimizning "oila" va "to'y" atamaları har bir voha aholisining o'ziga xos yashash sharoiti va turmushida mujassam o'rin olgan holda, xalqning orzu-umidlari, intilishlarini o'zida namoyon etgan. Insonning tug'ilishi va vaqt soati yetib kelib bu dunyodan ketishi tabiat qonunidir. Lekin inson hayoti davrida shunday voqealar bo'ladiki, albatta, ularni oila davrasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu kabi voqealar maxsus marosimlar orqali nishonlanib, bu marosimlar turkumi **oilaviy marosimlar** deb yuritiladi. Ushbu marosimlar bilan bog'liq holda shakllangan, yaratilgan aytim-qo'shiqlar **oilaviy marosim qo'shiqlari** deyiladi.

Surxon oilaviy marosim qo'shiqlarini ham uch guruhga bo'lish mumkin:

1. To'y marosim qo'shiqlari.
2. Aza-motam aytimlari.
3. Oilaviy-maishiy marosim aytimlari.

Ularning har biri o'z navbatida ma'lum tur va janrlarga bo'linadi. Jumladan, o'zbek xalqining to'y marosimlari sirasiga farzand tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan "Beshik to'y", "Soch olar to'y", "Sunnat to'y", "Muchal to'y", "Nikoh to'y"lar kiradi. Mana shu marosimlar bilan bevosita bog'liq holda yaratilib ijro etiladigan qo'shiqlar "**to'y marosim qo'shiqlari**" deyiladi. Ular o'z mavzui va funksiyalari bo'yicha ma'lum janrlarga bo'linadi: to'y marosim qo'shiqlariga "Hay yorey, hay do'st", "O'lan", "Alla", "Yor-yor", "Kelin salom", "Paxtaro gir", "Yaquq-yaq", "Um-ufu", "Layla-lo", "Aylansin yor", "Yor-yorone", "Muchal qo'shig'i" va boshqalar kiradi.

O'zbek xalqida insonning o'limi va dafn odatlari bilan bevosita bog'liq bir qancha marosimlar mavjud: marhumni "mehmon qilish" ("qora osh" tortish), yig'i marosimi, marhumning gunohini olish marosimi, chiqarish, ko'mish marosimiga qatnashish, oxirgi marta vidolashuv, ta'ziya izhor etish ana shular jumlasidandir. Qadrdon



kishining vafoti munosabati bilan ayollar tomonidan yig'lab aytilgan "aza", "yig'i", "yo'qlov", "aytim", "bo'zlov", "ovoz solish", "sadr" aytimlari va "marsiya" qo'shiqlarida marhumning eng yaxshi sifatleri yo'qlanadi, shafqatsiz o'lim tufayli boshga tushgan musibat, judolik dardi g'am-alam bilan izhor etiladi. Go'yandalar (maxsus yig'ichilar) har bir to'rtlikni aytganidan so'ng, marosimda qatnashgan ayollar bir ohangda "uv" tortadilar. Azali uylarda boshlovchilar avvaldan aytilib kelingan yig'ilarni takrorlaydilar, ba'zan yangi "yig'i" qo'shiqlarini ham to'qiydilar. Falaqdan shikoyat qilish, ota yoki onasidan ajralib qolgan g'arib yetimlarning ahvolidan nolish ohanglari, marhumning hayotdan ketishi tufayli zor-zor yig'lab, qon yutgan onaning iztirob to'la alamlari tasvirlanadi¹.

Ko'p hududlarda, xususan, qishloq joylarda yig'i marosimi odat tusiga kirgan bo'lib, ma'lum tartibda o'tadi. Ayollar yakka tarzda yoki bir-birlari bilan ko'rishib, yoki davra qurib (ba'zan tik turib) yig'laydilar. O'tirib yig'lashda katta davra quradilar. Odatda qishloqda, shahar mahallalarida aza aytuvchi - yig'ichi (go'yanda) ayollar bo'ladi. Aytuvchi o'rta tushadi va vafot etganning belbog'i, marhum ayol kishi bo'lsa ro'molini bo'yniga tashlab, uning yaxshi xislatlarini tirikligida qilgan ishlarini yaqinlari tilidan ta'sirli qilib aytib yig'laydi. Azador qiz va kelinlar sochlarini yoyib yig'iga qo'shiladilar, boshqa ayollar ham jo'r bo'lib giryona yig'laydilar. Go'yanda, ya'ni aytuvchi qishloq yoki mahallada so'nggi bir yil davomida o'lgan kishilarning nomlarini birma-bir tilga olib tugamaguncha davra yig'isi davom etaveradi.

Yig'ining ikkinchi ko'rinishi "sadr" ("sadr tepishi") nomi bilan ma'lum. Ushbu marosimga yig'ilgan ayollar tik turib, davra qurib yig'laydilar. Aytuvchi davraning o'rtasida bo'ladi, u bilan davra ichida shu xonadonning alamzada ayollaridan biri (onasi, xotini, qizi va boshqalar) ham qatnashadi. Aytuvchi yig'ini boshlaydi, davradagi ayollar aylanib, tepinib, ko'kraklariga mushtlab (davrani buzmasdan, gir aylanib) yig'laydilar. O'zbekistonning Surxon vohasida ayollardan tashqari erkaklar ham "sadr" tepganlar. Ammo boshqa viloyatlarda "sadr tepish" odati kam uchraydi².

O'zbek xalq og'zaki ijodi janrlari sirasida ham xatti-harakat, ko'z va so'z jodusi bilan bog'liq folklor janrlari katta o'rin egallaydi. Ular oilaviy-maishiy marosimlari va qadimdan mavjud bo'lgan va hozirgi kungacha saqlanib kelinayotgan diniy-ibodat marosimlari bilan bog'liq bo'lgan janrlardir. Bular bolani uxlatishida aytiladigan "allalar",

davolash marosimlari bilan bog'liq "ko'ch", "qaytarma", "jahr", "alas", "badik", "kinna", "olqish", "qarg'ish", "afsun", "burey-burey" hamda turli irim-sirimlar bilan bog'liq aytimlardir. Bu janrlarda ham qadimgi mifologiyaga xos obrazlar, zardushtiylik, islom kabi dinlarga xos tasavvurlar alohida-alohida qatlamlarni tashkil etadi. Ularda u yoki bu dinga xos e'tiqod va tushunchalarning uchrashi tabiiy bir holdir³.

Xalq hayotida muhim o'rin tutgan, ko'p asrlik tarixdan xabar beradigan oilaviy marosim qo'shiqlarining badiiy obrazi, tabiati va musiqiy tili xalqchildir. "Hayot va tabiat boyliklarining murakkab va nozik tomonlarini, kishining ichki ruhiy dunyosini ochish, tasvirlash va ifodalashda xalq qo'shiq va ta'birlaridan oziqlandilar"⁴. Shu tufayli, hayot va madaniyatdagi an'analar xalqning moddiy-ma'naviy ehtiyojidan kelib chiqqan, bu narsa marosim musiqa asarlarida, ayniqsa, to'y marosim qo'shiq va aytishuvlari (*yor-yor, kelin salom, o'lan, muborak*), aza-motam (*yig'i, sadr*) va oilaviy-maishiy marosim aytimlari (*jahr, badik, alla, xuvdi*)da voqelikni haqqoniy aks ettirishga xizmat qilgan.

§1. TO'Y MAROSIMI QO'SHIQLARI TASNIFI

O'zbek xalqining uzoq o'tmishidan hozirgi kunimizgacha saqlanib kelayotgan ajoyib va xilma-xil urf-odatlar, rasm-rusumlari va udumlari mavjud. Ana shu urf-odatlarining ko'pchilik qismini to'y marosimlari tashkil etadi. To'y so'zining asl ma'nosiga to'xtalsak, bu so'z qadimgi turkiy tilda "bayram" ma'nosini anglatadi. "To'y" so'zi to'ymoqdan olinib katta ziyofat ma'nosini beradi⁵. To'y tushunchasi orqali keng jamoatchilik ishtirokida kechadigan ommaviy tadbirlar ham ifodalangan⁶. To'ylar, asosan, yangi avlodning dunyoga kelishi bilan bog'liq. Farzandi ko'p xalqning to'ylari ham ko'p bo'ladi. To'yning belgisi bayramona-marosim cholg'u ansambli (karnay-surnay, nog'ora, doiralardan iborat)ning va xabarchi chaqiriqlarining maftunkor ovozidir. "To'y o'z nomi bilan yaqin do'st-yor, qadrindosh-urug' diydoriga, shirin taomlarga, yaxshi kuy va qo'shiqqa, kurashu, ko'pkari tomoshasiga, bayram shodiyonalariga, kulgi va quvonchga to'yishdir. To'ylar ko'pincha qadimda qish faslida o'tkazilgan. Chunki bu faslda dehqon, chorvadorning qo'li ko'proq bo'sh bo'lgan"⁷.

³ Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. - T.: Fan, 1986. 139-140-b.

⁴ Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. - T.: Fan, 1974. 157-158-b.

⁵ Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. - T.: Fan, 1974. 153-b.

⁶ Ismoilov X. O'zbek to'ylari. - T.: O'zbekiston, 1992. 4-b.

⁷ Sattor M. O'zbek udumlari. - T.: Fan, 2004. 113-b.

¹ Razzoqov X., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1980. 94-95-b.

² O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. - T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 545-546-b.

To'y bu ko'pchilik to'planib nishonlaydigan ommaviy marosimdir. To'yning ham turlari qadimdan juda ko'p bo'lgan. Ana shunday to'ylar qatoriga Beshik to'yi, Soch olar to'yi, Tish to'yi, Oyoq to'yi, Sunnat (xatna yoki gula) to'yi, Muchal to'yi, Nikoh to'yi, Hovli to'yi, Payg'ambar yoshi to'yi (oshi) va hokazolar. Xalqimizning ma'naviy boyligi uning qo'shiqlarida ravshan va yorqin namoyon bo'ladi. Qo'shiq mehr-muhabbat, sog'inch, g'am, quvonchu alam, umiddan tug'iladi. U ohang va shakl libosidagi insoniy tuyg'ular ifodasidir. O'zbek xalqining muhabbati cheksiz, qo'shiq ijod qilish salohiyati beqiyos, qo'shiq xazinasi boy.

Ma'lumki, qo'shiq insonning his-tuyg'ularini ko'rsatib beruvchi sadoqat, quvonch, g'am, sog'inch, alam, umid kabi omillar orqali paydo bo'ladi. Mana shu omillar ohang, kuy va so'z ta'sirida qo'shiqqa aylanib insoniy tuyg'ularini ifodalaydi. Bebaho ma'naviy xazinamiz hisoblangan qo'shiqlarimizning ko'p qismini to'y marosim qo'shiqlari tashkil etadi. Bu qo'shiqlar "voqeabandligi, ijro etish o'rni, obrazlar silsilasi bilan boshqa tur qo'shiqlardan keskin farq qiladi. To'y bola, kelin, kuyov, ona, ota, singil, yangalar, qizning dugonalari, kuyov jo'ralari, qo'shnilar, kudalari obrazlari to'y qo'shiqlari asosini tashkil etadi"⁸.

"Muchal to'yi" faqat shod xurramlik tantanasidan iborat bo'lmay, balki muchal to'y sababchisining chaqaloqlik davridan balog'at yoshigacha yashagan o'n ikki yillik sarhisobidir. Birinchi muchal to'yi oila davrasida nishonlansa, keyingilari esa, do'stlar-u og'aynilar, hamkasblar ishtirokida kengroq doirada o'tkaziladi.

"Muchal to'yi" marosimida kuylangan lapar va qo'shiqlar, dilrabo kuy va raqslarning xalqimiz qalbida asrlar davomida barhayot yashab kelayotganligi, xalqimizning o'z urf-odat va an'alariga sodiqligi millatimizning kelajak ravnaqini ta'minlovchi asosiy manbadir.

Nikoh to'yi - xalqimizning eng qadimiy va muqaddas an'anaviy marosimi. U sovchilarning qutlug' qadamidan boshlanib, to'y jo'natish, kuyov-kelin poyiga to'shalgan poyondozi talashish, "yor-yor" aytish, kelinni gulxan atrofida aylantirish, "kelin ko'tardi", "bet ochar", "kelin salom", "kelin ko'rdi", "qiz chaqirishi" (chorlov) bilan tugaganiga qadar oraliqda yana o'nlab marosimlar, rasm-rusumlardan tarkib topgan. Xalqimiz asrlar davomida ularning barini yuksak e'tiqod ila ado etib kelayotir. Bu udum ibtidoiy davr oxirlaridan ba'zi o'zgarishlar bilan davom etib kelmoqda. Ayrim yerlarda qiz ota-onasini ikki-uch kun ba'zan undan ham ko'proq qolib ketgan. Bunda kuyovning kelib-ketib

⁸ Musaqulov A., Mirzaeva M. Ostonasi tillodan. - T.: Fan, 1993. 6-b.

turishiga ruxsat etilgan. Ba'zi o'zbek urug'larida, jumladan, Boysunda bunday uchrashuvni "qalliq o'yini" ham deyishadi. Ba'zi urug'larda esa kuyov kelinnikida ma'lum muddat yashab turgan⁹.

Surxondaryoning ba'zi o'zbek urug'larida nikoh to'ylari o'zgacha o'tkaziladi. Kelin kuyovning uyiga jo'nash oldidan ota-onasi bilan xayrlashish marosimi o'tkaziladi. Kelin otasidan bergan non tuzi uchun, onasidan bergan sutiga rozilik so'raydi. Albatta, bunday paytda qiz bolaga nihoyatda og'ir bo'ladi. Chunki katta bo'lgan xonadonini, ota-onasini, aka-ukalarini, opa-singillarini tashlab, boshqa xonadonga borish qiz bola uchun oson emas. Nihoyat, ota-onasining roziligini olgach, mo'ysafid oqsoqollardan biri duo beradi. Kelinni otga mindirishadi, kelinning yaqin og'aynisi otni yetaklab boradi. Kelinning boshqa og'aynilari ham bularga ergashib kuyov xonadoni tomon ketishadi. Kelin og'aynilari bilan ketayotanda yo'lga, albatta, tayoq tashlashadi yoki arqon tortishadi. O'zbek xalqi to'y marosimlarining tarkibiy qismiga kiradigan odatlardan biri - kuyovnikiga ketayotgan kelinning yo'lga "arqon tutish"dir. Buni Qashqadaryoda "po'ta", "po'ta tutish", "xon tayoq" deyishadi. Surxondaryoda esa "tayoq tashlash", "to'siq", "yo'l to'sar" ham deyishadi. Arqon tutgan kishilarga kelin tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan noz-ne'matlar, belbog'-ro'molcha yoki pul berganlar. Berilgan in'omdan yigitlarning ko'ngli to'lsa, yo'lni ochib berganlar, ko'ngillari to'lmasa, to'siqni olmaganlar¹⁰. Bunday arqon tutish yaxshi ma'noda - ramziy to'siqdir.

Surxon vohasi nikoh to'yi marosimlarida "yuz ochar", "bet ochar" yoki "yuz ko'rsatar" odati alohida o'rin tutadi. To'yning ertasi kuni bo'ladigan "yuz ochar"da kuyovning to'rt-besh yoshlaridagi ukasi yangasi yuzidagi chimmatini mevali daraxtning shoxi bilan oladi¹¹.

Bu marosimda kelinning birinchi qadami bosgan joyi - o'choq boshi bo'ladi. Idish-tovoqlarga ko'z soladi, shu xonadonga sodiq bo'lish ramzida itning yalog'iga, ya'ni itga ovqat beradigan maxsus idishga ovqat soladi va ta'zim bajo etadi. Ba'zi joylarda otning qozig'iga ham ta'zim berishadi, bu esa otday vafoli bo'lish ramzidir. Nevara-chevarali bo'lib yurayin deb kelin, albatta, qo'lga go'dak oladi. Kayvoni momo kelinni to'ylovchilarga salom berdiradi.

Soydan hukiz suvlatgan,

Do'mbirasini kuylatgan.

O'g'illarini uylatgan,

Qaynotasiga bir salom!

⁹ O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. - T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 544-b.

¹⁰ Yusupov J. Arqon tutish // Saodat. - 1998. - №1. 31-b.

¹¹ Javliev T. An'analar - hayot sabog'i. - T.: O'zbekiston, 1992. 52-b.

Surxondaryoning Denov tumaniga qarashli tog'li O'shor qishlog'i aholisi o'zlarining qadimiy an'alariga, marosimlariga, o'zlariga xos bo'lgan urf-odatlariga ega. Tog'liklar farzandlari sharafiga beriladigan sunnat to'yini hamma narsalari tayyor bo'lgach, o'tin yig'ishdan boshlashadi. To'y egasi qishloq ahlini "Hezum xabaron"ga, ya'ni o'tin yig'ishga chorlab, uyiga taklif etadi, ularga ziyofat beradi. Ertasi kuni imkoni bor kishilar 20-30 eshaklab o'tin yig'ib kelishadi. To'ydan bir kun oldin xatmi Qur'on o'qiladi. Shu oqshom maslahat oshi beriladi. To'yga xizmatkorlar tayinlanib, kim nima xizmat qilishi belgilab olinadi. Uzoq-yaqindagi qarindoshlar to'yga taklif etiladi.

Azonda surnay chalinib, to'y boshlanganidan darak beradi. Tushda qishloqning qoq o'rtasidagi tepalik qo'rg'ondan jarchining qishloq ahlini oshga chorlovchi ovozi yangraydi. Shu kuni kechasi to'yxona osmoni hofizlarning sho'x-shodon qo'shiqlari bilan to'lib-toshadi. Mehmonlar o'yin-kulgi bilan raqsga tushishib, to'yxona sohibining shodligiga sherik bo'lishadi.

"Chavki" qadimdan to'ylarning ko'rki bo'lgan. To'ydan oldin yaqin atrofga, undan ham uzoqroqqa xabarchi yuborilib, chavki berilishidan polvonlar ogohlantiriladi. Ilgarilari polvonlar ulkan gulxan atrofida kurash tushishardi. Charsillab yonib turgan olov atrofida bu juda nash'ali bo'ladi. G'olib polvonlarga haq berish 3-4 bakovul, yiqilgan polvonlarni haqiqatda belgilangan tartibda to'g'ri yoki noto'g'ri yiqitilganini aniqlovchi hakam tayinlanadi. U bu narsani "harom" yoki "halol" deb aytib boradi. Ba'zan to'y sohibi piyoda yoki eshak poyga ham uyushtiradi. Buning uchun alohida haq ajratiladi. Butun qishloq ahli tomoshaga chiqadi. Poygachilarning harakatiga moslab surnaychi, doyrachilar sho'x kuylar chalib turishadi. Poygadan so'ng yana elga osh beriladi. Dasturxonga fotiha tortilgach, ikki yoki undan ortiq otlar jihozlanib, egar ustiga guldo'zli zardevorlar yopilib, otlar juda chiroyli qilib bezatiladi. To'ychi bolalar otlarga mindiriladi. Otlarning jilovlaridan to'y bolaning yaqinlari ushlab borishadi. Ularning orqasidan o'n-o'n beshga yaqin kishilar to'planishib, "Hay yor" qo'shig'ini aytishadi. Bir kishi baytlarni aytib, qolganlar "Hay yorey, hay do'st" so'zlariga jo'r bo'lishadi¹².

¹² Ochilov A., Muzaffarzoda I. O'shor. - Termiz: Jayxun, 2000. 49-b.

Hayyore, hay do'st

O'rtacha

A - riq bo' - yi - da yal - piz - ey, hay yo - rey, hay do'st,
 hay do'st, do'st, do'st. Yal - piz - ning bar - gi yol - g'iz - ey
 hay yo - rey hay do'st, hay do'st, do'st, do'st.
 O - tang bo - zor ket - gan - da - ey hay yo - rey, hay do'st
 hay do'st, do'st, do'st. Qan - day yo - ta - san yol - g'iz - ey
 hay yo - rey hay do'st, hay do'st, do'st, do'st.

Nari betning kamari-yey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-
 do'st, do'st.
 Hurillaydi shamoli-yey.
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-
 do'st, do'st.
 Olti oy qo'limda turdi-yey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-
 do'st, do'st.
 Yetti gulli ro'moli-yey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-
 do'st, do'st.

Bizlar bordik andizga-yey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-
 do'st, do'st.
 Otim tayrildi muzga-yey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-
 do'st, do'st.
 Tayrilmoqqa muz yaxshi-yey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-
 do'st, do'st.
 O'ynamoqqa siz yaxshi-yey,
 Hayyorey, hay do'st, hay do'st-
 do'st, do'st.

Qo'shiqning o'lchovi 6/8 bo'lib, o'rtacha tezlikda cholg'u jo'rligisiz ijro etiladi. Shuning uchun kuylovchilardan katta mahorat talab qilinadi. "Hay yor" qo'shig'i kuyi o'zgacha tuzilgan bo'lib, uning harakat doirasi yuqoridan bosqichma-bosqich ("si¹ - mi¹") kvinta oralig'ida yo'naltirilgan. Olti taktli kuy tuzilmasi ikki taktli ohangdan tashkil topgan (qo'shiq ladi Mi ioniy, diapazoni kvinta oralig'i). Ikki taktli

ravon yo'nalishdagi ohang ("si-mi") yana yuqoriga harakat etib, yakunlovchi taktlarda boshlang'ich ohang bilan tugallanadi. Ushbu olti taktli kuy ohangdosh she'r matni bilan uyg'unlashib, qo'shiqning to'liq kuyini taqozo etadi. Qo'shiq kuyi lirik, mungli xarakterida bo'lib o'zining ta'sirchanlik xususiyatini yanada oshiradi va bevosita marosimda to'yga chorlovchi vazifasini ham bajaradi. Shu zaylda ular qishloqni aylanishib, to'y bo'layottan xonadonga kirib kelishadi. Shu payt kimdir "Socholo-o-o" deb qichqiradi va to'ydorning jo'ralari tom ustiga yoki balandroq joyga chiqishib pul, ro'molcha, har xil o'yinchoqlar sochadilar. Surnay navolari bunga yanada fayz kiritadi. "Socholo" tugagach keksalardan biri to'y bolalarga fотиha berib, ko'pkari e'lon qilinadi. Ko'pkarida maxsus "poyga" kuyi surnayda ijro etiladi. Yana bir narsani aytib o'tish kerak, shu kuni ayollarga alohida bazm beriladi. Bazmda albatta "Lay - la - lo" qo'shig'i aytiladi.

Lay-la-lo

O'rtacha

At - la - sim - ning o - qi bor lay - la - la - lo, lay - la - lo.
 Tu - mor qi - lib to - qib o - ley lay - la - la - lo, lay - la - lo,
 Yosh - li - ging - da o'y - nab qol, lay - la - la - lo, lay - la - lo.
 O'y - na - ma - gan kim - lar bo - rey lay - la - la - lo, lay - la - lo.
 Lay - la - la - lo, lay - la - lo, lay - la - la - lo, lay - la - lo.
 Lay - la - la - lo, lay - la - lo, lay - la - la - lo, lay - la - lo.

Chirog'im bor o'ninchi layla-la-lo, lay-la-lo,
 Piligi o'n birinchi layla-la-lo, lay-la-lo,
 Yigitlarning ichida layla-la-lo, lay-la-lo,
 Bizning yorga tengi yo'q layla-la-lo, lay-la-lo.

Sandiq ustida bo'xcha layla-la-lo, lay-la-lo,
 Yigitlar guli g'uncha layla-la-lo, lay-la-lo,
 Qurg'ur dushman qo'ymadi layla-la-lo, lay-la-lo,
 Gul bo'lib ochilguncha layla-la-lo, lay-la-lo.

Hovlingizda gul ko'rdim layla-la-lo, lay-la-lo,
 Shoxida bulbul ko'rdim layla-la-lo, lay-la-lo,
 Askar ketgan og'amni-yey layla-la-lo, lay-la-lo,
 Uxlab tushimda ko'rdim layla-la-lo, lay-la-lo.

Qo'shiqning kuyi sakkiz taktli bo'lib, sho'h-o'ynoqi xarakterida (tabiiy Mi eoliy ladi). Ikki she'r matni misralarini kamrab olgan ushbu kuy ikki jumladan iborat: birinchisi "mi" tovushida sakrama uslubida "si" tovushiga yuqoriga yo'nalgan va bu tovush oraliq'ida harakat etib, "lya" tovushida yakunlanadi. Ikkinchi jumla boshlang'ich ohang asosida qurilgan bo'lib, "si" tovushidan pastga harakat qiladi. Qo'shiqning har bir kupleti "layla-la-lo" naqarot so'zlari bilan asosiy lad bosqinchini ("mi") tasdiqlaydi. Ushbu qo'shiq o'zining xarakteri, tovushlar yo'nalishi, oxangning takrorligi va o'lchov-ritmik holati bilan (o'lchovi 6\8) yalla janriga yaqinligini bildiradi. Ijro uslubi ham shunga mos.

Ayollar bazmi to ko'pkari tugaganligi haqida to'yxonaga xabar yetkunicha davom etadi. Jonnisor kampirlardan biri qo'l ko'tarib to'y bolalarga fottiha beradi. Shundan so'ng to'yxona sohibi farzandlarini xatna qildiradi¹³.

Surxon vohasining so'lim tog'li Boysun tumanida sunnat to'y marosimida chorqarsak hamda beshqarsak deb ataluvchi o'yin o'tkaziladi. Bu o'yinda to'planganlar maxsus usulda qarsak chalishib, aytilayotgan qo'shiqlarning naqarotlariga qo'shilishib turishadi. O'yin va unda ijro etiladigan qo'shiqning chorqarsak, beshqarsak usuliga mos kelishiga asoslangan. Boysun atroflarida chorqarsak turkumiga "Yallama yorim", "Yaququ yaq", "Um - ufu" kabi qo'shiqlar kiradi. Chorqarsak xatna to'ylarining eng qiziq va hal qiluvchi nuqtasi sanaladi. To'y ishtirokchilari katta doira shaklida turadilar. Ichki qatordagilar tiz cho'kib o'tirishadi. O'rtaga bir yoki ikki yigit tushib, qarsak ritmi

¹³ Ochilov A., Muzaffarzoda I. O'shor. - Termiz: Jayxun, 2000. 50-b.

asosida chorqarsakning birinchi chaqiriq bo'limi "Yallama yorim" qo'shig'iga o'ynashadi. To'rt misrali bandlarni davradagi istagan kishi aytishi mumkin. Odatda, bu vazifani hofizasi band matnini yaxshi biladigan kishilar ado etishadi. Naqarotni qarsak jo'rligida butun davra ijro etishi mumkin¹⁴.

*Bundan bordim, yotibsiz,
Par yostiqa botibsiz.
Par yostiqni ko'tarsam,
Gulday toza yotibsiz.*

*Yallama yorim, yallola.
Yallolashaylik, yallolashaylik.
To'rtta - beshta bir bo'lib,
Hasratlashaylik.*

Qo'shiqning kuyi Boysunda keng tarqalishi migratsiya bilan bog'liq. Lekin uning xarakteri sho'x, jozibali, o'ynoqi, ayrim hollarda shiddatli. Farg'ona vodiysida ommalashib ketgan ushbu qo'shiq shu hududlarda xalq qo'shig'i sifatida tarqalgan bo'lib, so'z matnlari o'zgacha va hamisha cholg'u ansambli jo'rligida ijro etilib kelingan. "Yallama yorim" qo'shig'i ohangining keng tarqalishi, uning umuman o'zbeklar orasida xalq ohangi sifatida qabul qilinishi ommaviy qo'shiq ekanligi tufayli xalq ichiga singib ketganidan dalolat beradi.

Bayram va marosimlarni yakunlashda aytiladigan sho'x, ommaviy qo'shiqlardan biri "Aylansin yor, aylansin" qo'shig'idir. Qo'shiq matni termalardan tashkil topib, doimo bir xil bo'lmaydi. Sharoitga qarab 3-4 banddan 7-8 bandgacha bo'lishi mumkin. Qo'shiq cholg'u kuyi bilan boshlanib, birinchi band (asosiy ohangi "lya" tovushidan yuqoriga "do" gacha bosqichma-bosqich harakatda) va naqarot qismi hamma ishtirokchilar tomonidan kuylanadi (ladi Lya frigi). Qo'shiqning keyingi bandi esa yakka uslubda ijro etiladi ("re²" tovushidan yuqoriga "fa²" gacha va asosiy bosqichda yakunlanadi). Qo'shiq 2/4 o'lchovda bo'lyb, sho'x, quvnoq xarakterda, qo'shiq matnlari asosan muhabbat, visol, yor haqidagi termalardan tashkil topgan. Qo'shiqdagi "nurama", "burama", "urama" kabi so'zlar boysunliklar shevasiga xos bo'lgan so'zlardir. Qo'shiq shakli kuplet:

A (a + a) + V (v + v) + A (a + a).

Mana shundan so'ng "Um-ufu" yoki "Yor-yor yorone" qo'shig'i boshlanadi. Bu qo'shiqda raqs uslubi ham o'zgaradi. Yuqoridagi ikki qo'shiqda yigitlar asosan, ikki yonga, oldinga va orqaga sakrab o'ynasa, bu qo'shiqda esa balandga sakrab "katta oyoq" raqs harakatlarida o'ynaydilar.

Yor-yor, yorone

Tezroq

Yor - yor, yo - ro - ne, yor - yor, yo - ro - ne.
Suv ke - la - di mo' - ri - dan, yor - yor, yo - ro - ne.
Mo' - ri - dan ham na - ri - dan, yor - yor, yo - ro - ne.
A - ka - gi - nang ay - lan - sin, yor - yor, yo - ro - ne.
ko - ki - ling - ni to - ri - dan, yor - yor, yo - ro - ne.
O' - ho', ja - qa - la, o' - ho' ja - qa - la.

Suv keladi mo'ridan, yor-yor, yorone,
Mo'ridan ham naridan, yor-yor, yorone.
Akaginang aylansin, yor-yor, yorone,
Kokilingning toridan, yor-yor, yorone.

Tom ustida beda bor, yor-yor, yorone,
Maydasini elab ol, yor-yor, yorone.
Shuncha barno ichidan, yor-yor, yorone,
Yaxshisini tanlab ol, yor-yor, yorone.

Surxon ko'rkidir Boysun, yor-yor, yorone,
Qizlar ro'y molin yoysin, yor-yor, yorone.
Xalqimizning baxtiga, yor-yor, yorone,
Yurtimiz omon bo'lsin, yor-yor, yorone.

¹⁴ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. 132-b.

Qo'shiq jozibali xarakterida bo'lib, ikki ohangdan tashkil topgan: birinchisi naqarot so'zi ohangdoshli bo'lgani tufayli tuzilgan ("lya¹" asosiy tovush sifatida kuylanadi, *ohangdorligi* "lya-fa-sol-lya"); ikkinchisi - band ohangi - *sekunda oralig'ida* yuqoriga harakat qiladi ("lya-si-lya"). Shu tufayli har bir misraning musiqiy tili band ohangi va naqarot ohanglari mutanosibligi ko'rinishida. Ammo uchinchi misra kvarta yuqoriga kuylanadi ("re²" tovushi ohangdorligida) va yana asosiy boshlang'ich ohangi bilan tugallanadi. Qo'shiq shakli: A (a + a + a₁ + a) + V (v + a₁ + a).

Xatna to'ylarining xuddi shu jarayonida beshqarsak o'yini ham tashkil etiladi. Boysun beshqarsagi Denov va Urgut beshqarsaklaridan farqlanadi. Bu farq esa qarsak ritmik usulida ko'zga tashlanadi. Masalan, Boysunda qarsak ikki-bir-ikki tarzida chalinib, qo'shiqning bandlarini bir kishi, naqarotni esa guruh bo'lib ijro etishadi. Aytiladigan har bir misradan keyin "Aha-hey, aha" so'zlarini esa hamma qarsak chalib ijro etishadi¹⁵.

Sariosiyo tumanining tog'li Dashnobod qishlog'ida istiqomat qiluvchi Xurram bobo Turdiyevning aytishicha, qishloqda sunnat to'ylari "Naqsh" bazmisiz o'tmagan (Surxondaryo o'zbek qo'ng'irotlari sunnat to'yini "gula" deyishadi). "Naqsh" bu uzoq yillik tarixga ega bo'lib, qadimdan sunnat to'ylarida to'y egasi tomonidan to'rtburchak sandal shaklida yasatilib, uning atrofi chiroyli gullar bilan bezatilgan. To'y kuni "naqsh" tong sahar tom ustiga chiqarilib, yoniga bir juft non va oyna qo'yilgan. Buning ma'nosi shundan iboratki, nonning qo'yilishi to'y bolaning rizqi butun bo'lishiga, oyna esa yo'li yorug' bo'lishiga ishora qilgan. To'y kuni tush paytida elga osh tarqatilgach, "naqsh" bazmi boshlanadi. Bazmni, albatta, jarchi:

Odamlaru, odamlar,

Eshitmadim demanglar.

Qani naqshni olib chiqinglar,

"Naqsh" bazmini boshlaymiz, e-he-hey – deb hammani bazmga chorlaydi.

Shu payt davraga boshiga "naqsh" kiygan kishi kirib keladi va unga qarata bayt aytiladi. Terma janriga mos aytim, ammo ijro uslubi melodeklamatsiya - nutqli uslubda. Tovush balandligi aniq emas, har bir ijrochi melodeklamatsion (erkin, badihago'ylik) shaklida talqin etadi.



Shundan so'ng erkaklar ikki tomonga bo'linib, bir-birlariga qarata bayt aytilishni boshlaganlar.

¹⁵ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. 133-b.

Dashnobod naqsh aytishuv qo'shig'i

Tezroq

I chi tomondagilar



1-tomondagilar:

2-tomondagilar

Netarim sani bilan,
Bo'lmadi mani bilan.
San yoshgina o'g'lonsan,
Sargardon sani bilan.

Oshiqman oromim yo'q,
Kechaga qarorim yo'q.
Boshimga mushkul kelsa,
Shu ishdan xabarim yo'q.

Hamma: Bas, bas, bas, bas, bas.

Hamma: Bas, bas, bas, bas, bas.

2-tomondagilar:

1-tomondagilar:

Uzun soyga o'q otdim,
Chakmonimni yo'qotdim.
Uxlab qolgan yorimni,
Kishmish berib uyg'otdim.

Yangi oynning oydini,
Tegirmaning garduni.
Hech bandaga solmasin,
Shu bolaning dardini.

Hamma: Bas, bas, bas, bas, bas.

Hamma: Bas, bas, bas, bas, bas.

Davrada turgan guruh: Bas, bas, bas, bas - so'zlariga jo'r bo'lishadi.
Endi ikkinchi tomondan bir kishi javob baytini aytishni boshlaydi:

*Chumchug'im chirillaydi,
Qanoti pirillaydi.*

*Yoringa boray desam,
Ko'ppagi g'irillaydi.*

Guruh: Bas, bas, bas, bas – deya jo'r bo'lishib, davrani qizdirishadi.
Aytishuv sifatida ijro etilgan ushbu janr faqatgina shu tumanga xos, ijro uslubi - rechitativ holatda bo'lib, kuyi kalta diapazonda, lekin jo'shqin xarakteri bilan ajralib turadi. Aytishuvning har bir bandi yangi

so'zlar bilan badihago'ylik tarzida boyitilib boradi. "Naqsh" aytishuvi lapar janridan ajralib turadi: laparda bir mavzu yoki mazmun so'z matni asosini tashkil etsa, "naqsh"da har bir band o'z mazmuniga ega. Lapar yoki o'landa ham badihago'ylik uslubi ustivorlik qiladi, kuylari ham so'z matnidan kelib chiqqan holda turli tarzida - rechitativ yoki kuychang bo'lishi mumkin. Bu yerda bir holat, bir usul va uslub, so'z bo'g'inlariga ma'lum tovush to'g'ri keladi, shu tufayli rechitativ ijro uslubi hosil bo'ladi. Ijrochilar ovozi baland tovushlarda jaranglaydi. Ritmik uslubi ravon, ijro harakat jarayonida namoyon bo'ladi. "Naqsh" ijrochilari shu tariqa mahalla bo'ylab aylanib kelishadi.

"Naqsh" aytishuvidan keyin to'yxonada navbat surnay va doira kuylariga beriladi. Davra surilib raqqosalarga joy ochiladi, shu bilan bazm yana davom etadi. "Naqsh" udumi sunnat to'yida Xorazmda odat bo'lgan "chaman" udumiga o'xshash. Xorazmda ham sunnat to'y bo'layotgan hovlining darvozasida "chaman" (bezatilgan daraxt) o'rnatiladi, bu ushbu xonadonda to'y bo'layotganidan darak beradi.

Qo'shiq cholg'u jo'rligisiz va rechitativ uslubida ijro etilishi, uni badihago'ylik tarzida, yakka-guruh usulida va baland ovozda Farg'ona vodiysi va Tojikistonning Xo'jand tumanida keng tarqalgan "Naqsh" (erkaklar guruhi tomonidan aytilgan) qo'shiq janri bilan yaqinlashtiradi.

Boysun tumanidagi Yakkatol qishlog'ida "non pishdi" marosimi kuzatiladi, unda qishloqning barcha ayollari va ularning qarindoshlari ishtirok etadi. Yana bir marosim "o'tin oshi" o'ziga xos an'anasi bilan ajralib turadi - bu "qavzo". "Tog'dan o'tin tayyorlovchilar qaytib kelganda ularni yosh yigitlar kutib oladi, qishloqdan bir kishi "qavzo" - archa po'stlog'idan kiyim kiyadi. Butun qatnashchilar bilan birgalikda doira jo'rligida raqs tushib to'y bo'ladigan xonadonga kirib kelishadi" - deb yozadi R.Abdullayev¹⁶.

Beshik to'yi ko'pincha birinchi farzand sharafiga chaqaloqning chillasi chiqqanidan so'ng, yosh ota-ona uyida nishonlanadi. Xalqimizning beshikka belash marosimi o'ziga xos bo'lib, u juma va yakshanba kunida amalga oshiriladi.

Kayvoni momo chaqaloqni yuqori ko'tarib quyidagi aytimni aytib, chaqaloqni belay boshlaydi:

*Qoch-qoch, babasi,
Keldi beshikning egasi.
Ota-onang gapirishsa,*

*Qichqirishisa, yana qo'rqma.
Olapar it akillasa,
Sen yana qo'rqib yurma!*

¹⁶ Абдуллаев Р.С. Байсун. Традиционная музыкальная культура. - Т.: ЮНЕСКО, 2006. Стр. 28-31.

Matndagi "qoch-qoch, babasi, keldi beshikning egasi" so'zlari xalqimizning it bilan bog'liq totemistik qarashlariga aloqador.

Beshikka ilk belash va boshqa marosimlar, ulardagi aytim va qo'shiqlarni Xorazm vohasi misolida H.Ro'zmetov dissertatsiyasida batafsil yoritilgan¹⁷.

Onalar qadimdan o'z bolalari beshigi tepasida kechasi bo'lsin, kunduzi bo'lsin, alla aytib kelishgan. "Allalarda xalq turmushining juda ko'p qirralari o'z in'ikosini topgan. Alla o'z ohangi bilan bolaga ona nafasini yetkazib turadi. Go'dakni xotirjam qiladi, elitadi, orom olib uxlashga imkon beradi. Allalarga onalar o'z his-tuyg'ulari, orzu armonlari, istak-niyatlari, dard-hasratlarini ham qo'shib aytganlar"¹⁸.

O'zbeklar orasida keng tarqalgan folklor namunalaridan biri - *alla* (ona allasi). U katta tarbiya vositasi hisoblangan. Allada onaning ezgu tilaklari bolaning ma'naviy, aqliy, axloqiy kamoloti bilan yo'g'rilgan bo'ladi¹⁹.

"Alla qo'shiqning qadimiy turi bo'lib, yosh bolalarni uxlatish, orom oldirish uchun beshikka belab, belanchakka solib, tebratib, onalarning allalab kuylaydigan qo'shig'idir. Qo'shiqning bu turi ham cholg'usiz mayin orom beruvchi ohang bilan kuylanadi". Darhaqiqat, ona allasi maxsus ijrochi talab qilmay, onaning qalbidan buloqday otilib chiqadigan ruhiy va ma'naviy ozuqadir. Bu qo'shiq haqida Ibn Sino shunday yozadi: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi..."²⁰

Alla qo'shig'ining asosiy xususiyatlari badihago'ylik, she'riy matnining soddaligi, kuy tuzilishi ijrochining tayyorgarchiligi bilan bog'liq. Har bir alla o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki ona o'zi so'z, kuy va ijro muallifidir. Unda ham chuqur mazmun bor. Kuy tuzilishi so'z va ijro bilan in'ikosida. Birinchidan, alla qo'shig'ining lirik tarzda ijro etilishi. Ikkinchidan, alla qo'shiqlarining kuylari goh rechitativ, goh kuychang holatda bo'lishi mumkin. Uchinchidan, alla erkin ijro uslubida, o'lchov-ritmik tuzilishi ham erkin holatlarda aytiladi. Shu tufayli allaning kuylari kichik diapazonda sodda tuzilishida yoki oktava diapazonida kuyi rivojlangan mazmunan teran (onaning g'am-alamining ifodalovchi), shaklan keng bo'ladi.

¹⁷ Ro'zmetov H. Xorazm bolalar folklori (lokal xususiyatlari, tasnifi va badiiyati: Filol. fanlari nomzodi diss. ... avtoref. - T., 2005.

¹⁸ Sattor M. O'zbek udumlari. - T.: Fan, 2004. 10-b.

¹⁹ Javliyyev T. An'analar - hayot sabog'i. - T.: O'zbekiston, 1992. 36-b.

²⁰ Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. - T.: Fan, 1974. 131-b.



Alla qo'shig'ining mavzu va mazmunini musiqa tili yordamida ifodalash borasida ijrochilarning har biri o'ziga xos va ajoyib vositalarni izlab topadilar. Lekin umuman aytganda, alla bu onaning "dil izhori", shuning uchun ham unda samimiy ruhiy holat ifodasi yetakchilik qiladi.

Surxon vohasiga xos bo'lgan alla qo'shiqlaridan yana bir turi bu "huyo-huy" yoki "huyollo" aytilari. Ular erkaklar tomonidan bolani yupatish, erkalash, suyish, ovutish qo'shiqlari sifatida alohida o'rin tutadi. Ushbu aytim-qo'shiqlar ekspeditsiya jarayonida Sho'rchi tumani "Ijtimoiyat" jamoa xo'jaligida istiqomat qiluvchi 65 yoshli Abduhamid Yangiboyevdan, Oltinsoy tumani tog'li "Katta Vaxshivor" shirkat xo'jaligida yashovchi Narzullo Hotamovdan yozib olingan. Bolani qo'lga olib, erkalab yoki bag'riga bosib suygan va o'ynatganda, quyidagi qo'shiqlar aytilgan:

1. Chambil bekdan ot qochirdim, izi jo'q, huyo bolam, huyo-huy.

Qirq jigitga may ichirdim, tuzi jo'k, huyo bolam, huyo-huy.

Huyolar qilay bolamga-yo, huyo-huy

1. Huyollo buvasi qashqa yu-huy, yu-huy,

Ho'kizi kiradi moshga yu-huy, yu-huy.


Qushga ildam bo'lmasa-yo yu-huy, yu-huy,

Qayla qilinglar go'shtga yu-huy, yu-huy.

Bolani erkalash, ayrim holatlarga uxlatish, orom oldirish uchun aytiladigan bu qo'shiqlarning har biri o'ziga xos rechitativ ohangda kuylanib, qo'shiqqa ko'rinib turgan narsalar qo'shilib ikki yoki to'rt satrdan aytilib, har bir jumla "huyo-huy" so'zi orqali (erkalash ma'noli so'zlar) takrorlana boradi. Qo'shiq ohangi bir holatda va uslubda aytiladi, uning diapazoni kalta (umuman tersiya oralig'ida), ritmik uslubi ravon, shakli ham tekis - davriya tuzilishida. Lekin aytim matnlari juda keng, badiha uslubi ijro jarayonida ijod etilib kelinadi. Shunisi qiziqki, "huyollo"larda nafaqat so'zlari, balki ohangda ham vohaga xoslik sezilib turadi va ushbu aytilar o'zining lirik-epik xarakteri bilan ajralib turadi.

Huyollo

O'rtacha



Ola chipor oyog'i, yu-huy, yu-huy, yu-huy, yu-huy,
 Temirdayin tuyog'i, yu-huy, yu-huy, yu-huy, yu-huy,
 Huyolla aytay huy bo'lgina, yu-huy, yu-huy, yu-huy, yu-huy,
 Yuvoshgina qo'y bo'lgina, yu-huy, yu-huy, yu-huy, yu-huy,
 Xudoyimdan tiladim-a, yu-huy, yu-huy, yu-huy, yu-huy,
 Katta bo'lgin, to'y bo'lgin-a, yu-huy, yu-huy, yu-huy, yu-huy.

Buvaginang dalasi-ya, yu-huy, yu-huy, yu-huy, yu-huy,
 Ho'kizining mallasi, yu-huy, yu-huy, yu-huy, yu-huy,
 Yuragimdi ezadi-ya, yu-huy, yu-huy, yu-huy, yu-huy,
 Momosining allasi, yu-huy, yu-huy, yu-huy, yu-huy.

Bolani beshikka belash marosimlari, kichik va katta chillasi o'tgandan so'ng "Chilla qochdi", ya'ni "Chilla gurezon" qilib, bobosinikiga olib borishlarida ham juda katta ma'no bor²¹.

Bolaning ilk bor sochini olayotganda, kichikroq yoki kattaroq qilib, umuman baholi qudrat elga osh berishadi. Tog'li o'shorliklarda bu "Sar kalon", ba'zi joylarda "Soch olar", "Aqiqa" deb ataladi. Buni "kokil

²¹ Ubaydullaeva M. Chilla nima? // Saodat. - 1999. - №4. 30-b.

qo'yish" ham deyishadi. Bu odat hozirgacha tog'li qishloqlarda o'z qimmatini yo'qotgani yo'q²².

"Kokil qo'yish" - ikki xil bo'lgan, bular "sayyid kokil" va "nazr" yoki "atama" kokil deb atalgan. "Sayyid kokil"ni ilgarilari faqat sayyidlar (to'ralar) boshning ikki joyidan qo'yganlar. Uzunligi taxminan 20-30 santimetrgacha o'stirib o'rib qo'yilgan. Bu ularning payg'ambar avlodi, xalifa Alining o'g'illari imom Hasan va Husayndan tarqalganligining belgisi hisoblanadi. Sayyidlar bu kokilni umrbod saqlaganlar.

"Nazr kokil" qo'yish oddiy kishilar orasida odat bo'lgan. Ular o'g'il farzandlariga uzoq umr ko'rish, sihat-salomat yurishini niyat qilib "muqaddas" ziyoratgoh joylarga atab boshning tepa o'ng qismidan biroz soch qoldirganlar²³.

"Muchal to'yi"ni nishonlashdagi tartib, qoidalar Surxondaryo viloyatining tog'li Boysun tumani aholisiga xosdir va uning sahnaviy ko'rinishini shartli ravishda uch qismga bo'lish mumkin. Birinchi qismda - izlash va chaqirish ifodalansa, ikkinchi qism tengdosh o'g'il va qiz bolalarning o'yin, qo'shiq aytish va raqsga tushish jarayonini ifodalaydi. Uchinchi qism eng yirik va asosiy voqealar sodir bo'ladigan bo'laklardan iborat. Bu qismda "muchal to'yi"ga xos marosim va udumlar, qo'shiq va raqslar orqali ushbu marosim bilan bog'liq turli qarashlar ifodalanadi.

"Muchal qo'shig'i" ushbu marosimning eng asosiy qo'shig'idir. Chunki, ushbu qo'shiqda muchal hayvonlarining xulq-atvoridan qaysi birlarini o'ziga singdirishi va qaysi birlaridan o'zini saqlashi haqida o'ziga xos "tarbiya" yotadi. Qo'shiq ijrosida buvisi, qizning dugonasi tarbiyaviy so'zlariga qo'shimcha sifatida hamma birgalikda kuylaydigan satrlar bor. Qizig'i shundaki, buvi muchal hayvonlarining ijobiy xislatlarini sanab o'tsa, dugonasi ana shu hayvonlarning salbiy xislatlaridan o'rnak olmaslikka chaqiradi. Qo'shiq yakka-guruh tarzda talqin etilib, hamma birgalikda kuylaydigan satrlardagi "o'n ikki" iborasi doimo cholg'usiz rehitativ ohangda ifodaviy ijro etiladi. Qo'shiqning o'lchovi 6/8 bo'lib, o'rtacha tezlikda aytiladi. Qo'shiq muqadimmasida cholg'u ansamblning to'rt taktli kuy ohangi beriladi. Dialog tarzida aytiladigan ushbu qo'shiq janr nuqtai nazaridan laparga yaqin. Qo'shiqning birinchi bandi yakka holda aytilsa, naqarot hamma ishtirokchilar tomonidan ijro etiladi (qo'shiq ladi Mi frigiyy). Shu tartib qo'shiqning oxirigacha saqlanib qolinadi.



²² Ochilov A., Muzaffarzoda I. O'shor odamlari deyilarki // Chag'oniyon. 1995. Aprel-may. 47-48-b.
²³ Ashirov A. Chaqaloq sotib olish marosimi // Sog'lom avlod uchun. - 2002. - №2. 25-b.

Qo'shiq kuyi qo'shiqsimon bo'lgani tufayli, uning ohangi, o'ynoqi tarzi matnning hazil-mutoyibaga moyilligi uning asosiy xarakterini beruvchi holatlardir. Asosiy kuy ohangi cholg'usiz beriladi, uslubiy shakli bolalar qo'shiq-o'yinini eslatadi. Lapar janriga xos bo'lgan "savol-javob" aytishuvlariga ham yaqin.



MUCHAL QO'SHIG'I

Moderato


♩ = 98



Hamma:



Naqarot:



I - lon-day o't - kir bo'l qi - zim Ot - day yu - gu - rik

bo'l qi - zim Qo'y-day be - za - rar bo'l qi - zim (ey)

Naqarot:
Sa - nab ko' - ra - miz bir ik - ki - (yo) Mu - chal-dan mu-chal

Qizcha:
o'n ik - ki Ba - liq - lar-day gugn bo'l - ma - gin

I - lon-day bad - fe'l bo'l - ma - gin Ot - lar-day a - sov

bol - ma - gin Qo'y - lar - day yuv - vosh bo'l - ma - gin

Naqarot:
Sa - nab ko' - ra - miz bir ik - ki - (yo) Mu - chal-dan mu-chal

Buvi:
o'n ik - ki May - mun - day sho'x - lik qil qi - zim

To - vuq - day riz - qing mo'l qi - zi - (mey) It - day va - fo - dor

bo'l qi - zi - (mey) To'n - g'iz - day to'q - roq bo'l qi - zim

NAQAROT:
Sa - nab ko' - ra - miz bir ik - ki (yo) Mu - chal-dan mu - chal

“Nikoh to‘yi”ning asosiy qo‘shiqlaridan biri “Yor-yor”. U O‘zbekistonning hamma hududlarida keng tarqalgan. Surxon vohasining hamma qishloqlarida hozirgacha ushbu qo‘shiq yangrab kelmoqda. Jumladan, o‘shorliklar bunday nurafshon va farahbaxsh ayyomlar

zamidida hayotga, baxt va muhabbatga bo‘lgan tashnalik jo‘sh urgan sho‘xchan, ayni paytda bir oz hazin “Yor-yor” qo‘shiqlarini kuylab kelishgan:

Qat-qatgina qatlama qatlanibdi, yor-yor,
Qizni olib dugonasi otlanibdi, yor-yor.
Qizni olib dugonasi qarab tursin, yor-yor,
Oq sut bergan onajoni rozi bo‘lsin, yor-yor.

“Yor-yor”larning mavzu doirasi juda keng bo‘lib, unda goh hazil, goh quvnoq, goh yengil yumor, goh achchiq xajviy ohanglar uchraydi. Bu narsa turmushga chiqmagan qizning, o‘tkazilayotgan to‘yning va nihoyat uylanayotgan yigitning axloqiy xislatlari, jamiyatda tutgan mavqei, insoniy fazilatlarini kabi ko‘pgina jihatlari bilan shartlangan. Qolaversa, “yor-yor”larda qaysi ohangning ustunlik qilishi uning ijrochilari bilan ham bog‘liqdir. Binobarin, qizni kuyovnikiga olib kelishda “yor-yor” qo‘shig‘ining erkin bandlari kayvoni xotin yoki qizning qarindoshi tomonidan aytilganda, kelinning yaxshi fazilatlarini, xulq-atvoridagi go‘zal jihatlari, uning kamoloti madh etiladi.

Buni Denov tumani O‘shor qishlog‘ida yashovchi Habiba Rahimovadan yozib olingan “yor-yor” misolida ko‘rishimiz mumkin:

Nima kiysang yarashadi, Yopilmaydi yor-yorey, yor-yorey.
Bo‘yginanga yor-yorey, yor-yorey. Shu qiz tengi dunyoda,
O‘lan aytay deb keldimo, Topilmaydi yor-yorey, yor-yorey.
To‘yginanga yor-yorey, yor-yorey.
Otang qilgan bu eshik,

Denov tumani “Sh.Qobilov” nomli shirkat xo‘jaligida istiqomat qiluvchi 91 yoshli Zumrad Murotalievaning “yor-yor” qo‘shig‘i o‘zgacha:

Soydan chiqqan qamishni, yor-yorey, Qizil gulning bargidan, yor-yorey,
Choydushga sol qaynasin, yor-yorey. O‘tirsam turolmayman, yor-yorey,
Ikki mo‘min yor bo‘ldi, yor-yorey, Oshiqlikning dardidan, yor-yorey.
Qarsak chaling o‘ynasin, yor-yorey.
Ro‘molim bor hargizdan, yor-yorey,

Oltinsoy tumani Vaxshivor jamoa xo‘jaligida istiqomat qiluvchi 72 yoshli Oyim momo Hotamova aytgan “yor-yor” qo‘shig‘i juda sodda va yengil tarzda ijro etiladi:

Taxta-taxta ko‘pirik, Payg‘ambarning qiziday,
Taxting bo‘lsin yor-yor. Baxting bo‘lsin yor-yor.

Payg 'ambarning qizini,
Kim ko 'ribdi yor-yor.

Ushbu tumanga xos bo'lgan qo'shiq matni va kuyi o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Kuy yengil, ravon uslubda, xarakteri lirik, kichik diapazonda. Kuyning tuzilishi so'z shevasidan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi. Uning ikkinchi varianti ham shunga o'xshash ohangda aytiladi:

Ikki yonma-yon,
Bo'y beradi yor-yor.
Ikki quda teng turib,
To'y beradi yor-yor.

"Yor-yor" kelinning dugonalari tomonidan ijro etilsa, qo'shiqda qizning dardu-alamlari, ota-onadan, tug'ilib o'sgan xonadonidan ayrilayotganligi, zo'rlik bilan turmushga uzatilishi, sevganiga yetolmaganligi haqidagi mungli ohanglar ustuvorlik qilishi mumkin. Xullas, "Yor-yor"larda qanday ohangning ustunlik qilishi asosida juda ko'p sabablar yotadi. Umuman olganda barcha turdagi "Yor-yor"larning ohangi asosida muayyan o'lchov - ritmik tartibga solingan tor diapozonli kuylar uyg'unligi, so'z matni va ohangning bir-biriga in'ikosi yotadi. Ularning har biri o'zining kuy tuzilishi tartibi, ohang xarakteri va uning rivojlanishi, ritmi, ijro uslubi, so'z va musiqiy shevasi, ta'sirchanligi bilan farq qiladi.

Boysunga xos bo'lgan "Yor-yor"lar ham keng tarqalgan, uning hamma qishloqlarida aholining tartibiga ko'ra ushbu qo'shiq o'zbek yoki tojik tillarida kuylanadi. Har biri so'z matni umumiyli, ohang tizimi va ijro talqini uslubi bilan ajralib turadi.

Ota-ona uyidan,
Kim to'yibdi yor-yor.

Chimildiqning bog'ini,
To'qitganmiz yor-yor.
Bizni qizni so'rasang'iz,
O'qitganmiz yor-yor.

Boysun yor-yori

O'rtacha

Qat - qat - gi - na qat - la - ma. qat - la - nib - di yor. yor.
Qiz - ni o - lib yan - ga - lar, ot - la - nib - di yor, yor.
Os - mon - da - gi yul - duz - ni sak - kiz deng - lar yor, yor.
Sak - kiz qiz - ning sar - do - ri ke - lin deng - lar yor, yor.

Qat-qatgina qatlama,
Qatlanibdi yor-yor.
Qizni olib yangalar,
Otlanibdi yor-yor.

Ola qopdan otining,
Xurjini bor yor-yor.
Kuyovto'ra bilmagan,
Sirlarim bor yor-yor.

Osmondagi yulduzni,
Sakkiz denglar yor-yor.
Sakkiz qizning sardori,
Kelin denglar yor-yor.

Men otimni qo'shmayman,
Yomon otga yor-yor.
Qanday javob beramano,
Qiyomatga yor-yor.

Aravaning tagiga,
Sepdim kepak yor-yor.
Kelin oyning seplari,
Sakkiz ipak yor-yor.

Men kuyovga tiladim,
Boychibor ot yor-yor.
Minsa quvnab yayrasin,
Ul chipor ot yor-yor.

Bu qo'shiqning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ko'p yillar farzandlarini voyaga yetkazib kelin-kuyov libosida ko'rish, visol oqshomlarida aytiladigan "Yor-yor" qo'shiqlarini har qaysi ota-ona intiqlik, sog'inch va umid bilan kutadi. Qizni ota-onasi uyidan uzatayotganda va kuyovning xonadoniga kirib borayotgan "Yor-yor" qo'shiqlarini aytilishi beixtiyor ota-onalar ko'zida sevinch yoshlarini paydo qiladi. Bu qo'shiqda ota-onaning ta'rifi, orzu-umidi, kelin va kuyovning baxti, saodati, muhabbati, vafosi, serfarzand bo'lishlari ishtiyoq bilan kuylanadi.

Doira jo'rligida bu qo'shiqlarni kuylayotgan ayollarimiz hazil mutoyiba tariqasida kelin-kuyovga, og'aynilariga, qo'shnilariga atab hazilomuz bandlar ham to'qib kuylashadi. Bu qo'shiqning o'ziga xosligi *kyuy tuzilishida*, o'lchov-ritmik holatida, doira usuli va ijro uslubida *seziladi*. Umuman lirik xarakteridagi kuy ohangi (o'lchovi 4/4 "Yor-yor" targa xos emas) kvarta oralig'ida tuzilib "mi¹" tovushidan bosqichma-bosqich yuqoriga (aylanma holatida) "lya¹" tovushiga intiladi va yana ushbu tarzda orqaga qaytadi. Shunisi xarakterliki, bu ohangning ikkinchi jumlasini ("fa-sol-lya") qo'shiqning ijro jarayonida bir-necha marta takrorlanadi. Qo'shiqning umumiy shakli oddiy kuplet (to'rt misrani kamrab olgan):

A + V (a + a₁ + a₁ + a + v + a₁ + a₁)

Kuyning ikkinchi misrasi "do²" tovushidan pastga, bosqichma-bosqich harakat etadi va yana asosiy, takroriy jumla bilan yakunlanadi (ladi Mi frigiya). Doira usuli keng tarqalgan "Yor-yor" usullariga yaqin bo'lgani uchun qo'shiqning o'zgacha xarakterini tasvirlaydi. Zero, ohang tuzilishidagi tovushlar yo'nalishi va bir jumlaning takrorlashi o'ziga xoslik - lokallik musiqiy shevani mavjudligidan dalolat beradi.

Qizlar, yangalar "Kelin-salom" deb nomlangan sho'x va o'ynoqi, qochirim va hazilga boy bo'lgan ajoyib termalar aytishadi.

Tog'u toshni bor qilgan,

Ikki yoshni bir qilgan,

Avval Ollohga salom.

Har bir bayt aytilganda kelin ta'zim bilan salom beradi. Kuyovning yaqinlari kelin har gal salom berganda: "Hazor alik, qulluq" deyishadi. "Kelin salom" yoki "Hazor alik" (Surxon vohalarida kelin salomni ushbu nom bilan atashadi) misra shaklida bo'lib, yakka tarzda kayvoni ayol tomonidan rehitativ usulda aytiladi. Ushbu qo'shiq salomnomas-nasihati mazmuniga ega bo'lib, kelinni kuyov qarindoshlariga tanishtirish marosimi cholg'u jo'rligisiz kuylangan. Odat bo'yicha kelinning boshida dugonalari tomonidan qo'sh non (hayoti farovon bo'lishi uchun) ushlab turiladi. Bu ham non afsuni bilan bog'liq. Har bir banddan keyin ishtirokchilar tomonidan naqarat sifatida "hazor alik, qulluq" so'zlari taqrorlanadi.

Kayvoni:

Bug'doy uzum g'o'rasi,

Kuyovbekning jo'rasi,

Norguloyning to'rasi

Bahrom akasiga salom!

Hazor alik, qulluq.


Ayollar:

Ushbu marosimni boshqarayotgan kayvonilarning badihago'ylik qobiliyati namoyon bo'ladi. Surxondaryoning ba'zi yerlarida "kelin salom" uch satrdan, ba'zi yerlarda to'rt misradan tashkil topadi.


Bu marosim tugagach har ikkala tomondan uch-to'rt ayol qo'llariga paxta olishib, "Paxtaro gir" qo'shig'ini kuylab, o'yinni boshlab yuborishadi²⁴.

Paxtaro gir


Sho'xroq




Pax - ta - ro gir, pax - ta - ro, ba - noz gir pax - ta - ro.



Ba g'oz - gir pax - ta - ro, pax - ta - ro gir pax - ta - ro.



Gus fan - di - mo kush - ta - ro, meh-mon bi - yod shish - ta - ro.



Bi - rin - ji mo shush - ta - ro, pax - ta - ro gir pax - ta - ro,



ba nag' - ma gir pax - ta - ro, pax - ta - ro gir pax - ta - ro.

Paxtaro gir, paxtaro,
Ba noz gir paxtaro.
Ba g'oz gir paxtaro,
Paxtaro gir, paxtaro.
Gusfandi mo kushtaro,
Mehmon biyod shishtaro.
Birinji mo shushtaro,
Ba nag'ma gir paxtaro,
Paxtaro gir, paxtaro.

Qo'shiq kuyi juda sodda, kichik diapazonda, asosiy ohangi sekunda oralig'ida ("lya-si", lad tuzilmasi Lya eoliy). Ushbu ohangda birinchi to'rt misra jamlangan. Ikkinchi to'rt misralikda yangi ohang - sakrama

²⁴ Ochilov A., Muzaffarzoda I. O'shor. - Termiz: Jayxun, 2000. 46-b.

“lya-re” tovushlari orqali tuziladi va orqaga asosiy “lya” tovushiga qaytib, boshlang‘ich ohangda yakunlanadi. Jozibadorlik, sho‘x kayfiyatlik ushbu qo‘shiqqa xos.

Aytishuvdan keyin ikki tomon tarafma-taraf bo‘lishadi va juftma-juft bo‘lib kurash tushishadi. Bu uzoq o‘tmishda ayollar ham salt yurishlarda ishtirok etishgan, ular jismonan kuchli, epchil bo‘lishga intilib kelganlar, degan ma‘noni anglatadi²⁵.

Shuni ta‘kidlash kerakki, Surxon vohasi aholisi asosan o‘zbeklar va tojiklardan iborat bo‘lib, bir qishloqda o‘zbeklar istiqomat qilsa, boshqasida tojiklar yashaydi, ayrim qishloqlarda birga, aralashib yashaydilar. Shu tufayli to‘y-ma‘rakalar birgalikda o‘taveradi. Ular birlarining tiliga tushunib, ko‘plari har ikki tilda gaplashaveradilar. To‘ylarda o‘zbek va tojik marosim qo‘shiqlari goh alohida, goh birgalikda, shiru-shakar tarzida aytilishiga guvoh bo‘lamiz. Ayrim hollarda o‘zbek to‘ylarida tojik qo‘shiqlari, tojik to‘ylarida o‘zbek to‘y qo‘shiqlari ijro etiladi. Bu qadimiy an‘ana bo‘lib qolgan. Ijrochilar qo‘shiqlarni ikki tilda ravon, badiiy yuksak shaklda kuylashadi. Kuy tuzilishida ham o‘ziga xos mutanosiblikni sezish mumkin. Turli ohanglar xalq orasida shu qadar singib ketganki, ular vohaning musiqiy shevasini tashkil qiladi. Bu o‘z navbatida Surxon musiqiy tilini namoyon etadi. Uning xususiyatlarini ohang tuzilishi, kuy shakli, lad va ritmik holatlarda ko‘rishimiz mumkin. Binobarin, nafaqat mavsumiy qo‘shiq-aytimlarda, balki to‘y marosim qo‘shiqlarda, aytishuvlarida ham shu holat kuzatiladi.

To‘y marosim qo‘shiqlari janr tarkibi bo‘yicha xilma-xildir. To‘y marosimlarining har bir odat yoki udumi qo‘shiq va aytilimlar jo‘rligida o‘tkazilgan. To‘y marosim qo‘shiqlarida fikr ochiq ifodalangan, ruhiy holatlar tasvirida hayotda uchrab turadigan oddiy narsalarga o‘xshatish, taqqoslash xos bo‘lib, bu ijodkorlarning obrazli tafakkur darajasi bilan izohlanadi. O‘lan, yor-yor, kelin salom, aytishuv va boshqalarni aytishdan maqsad ko‘pchilikni ko‘nglini olish, to‘yni qizitish, ko‘ngildagilarni izhor etib, dunyoning issiq-sovug‘i, achchiq-chuchugi bilan yoshlarni tanishtirish, ular hayotini yengillashtirishdir. Ta‘kidlash lozimki, to‘y qo‘shiqlarida tasvirlash vositalari ko‘p qo‘llanilmaydi. Lekin ushbu qo‘shiqlar mazmuni chuqurligi va ta‘sir doirasining kengligi, kuylarning kuychang yo rechitativ usulda aytilishi, ravon yoki erkin ritmik usullardan foydalanish, ijro uslublarining rang-barangligi va ayniqsa, musiqiy shevasini o‘ziga xosligi to‘y marosim qo‘shiq-aytimlarida asosiy o‘rinni egallaydi.

²⁵ Ochilov A., Muzaffarzoda I. O‘shor. - Termiz: Jayxun, 2000. 47-b.
28

Surxon vohasi aholisining hayotiy yo‘li bilan bog‘liq muhim sana va voqealar turli oilaviy marosimlar orqali o‘z aksini topgan, ulardan hozirgi kungacha an‘analar sirasida o‘tkazilib kelayotgan beshik to‘yi (farzand tug‘ilishi), sunnat yoki o‘g‘il to‘yi (voha aholisi orasida keng va dabdabali marosim) va nikoh to‘yi (qiz chiqarish va o‘g‘il uylantirish) kabi oilaviy marosimlari mavjuddir. Har biri o‘ziga xoslik bilan ajralib, o‘z ichida ma‘lum darajada har bir hududga xos bo‘lgan rasm-rusmlar va udumlar bilan bog‘liqdir (masalan, nikoh to‘yi jarayonida “kelin tanlash”, “qayliq o‘yinlari” va b.) shu vohaga xosdir. Ushbu marosimlarida musiqa - cholg‘u kuylari va xalq qo‘shiq-aytimlari muhim o‘rin tutadi. Har bir marosim, udum va urf-odatlar cholg‘u kuylari (do‘mbira, chang-qo‘buz va doira-surnay kabi ansamblli jo‘rnavozi) va usullari (doira yoki dapp orqali) va, ayniqsa, marosim aytim va qo‘shiqlari aytilishi bilan bog‘liq bo‘lgan, chunki “turli mavzularda yaratilgan qo‘shiq o‘z zamonasining mevasi bo‘lishi bilan birga, uzoq o‘tmishning tarixiy yodgori hamdir”²⁶.

Darhaqiqat, to‘y marosim qo‘shiqlari mazmuni, tabiati, hatto ba‘zi bir iboralariga qarab asosan ayollar tomonidan ijod va ijro etilib kelingan. Shu tufayli ularning qalbining ohu nolasi, orzu-umidi, shodu xurramligi, turmush tarzi, oila munosabati, ayollarga bo‘lgan e‘tibor o‘z aksini topgandir. To‘yning, ayniqsa, nikoh to‘ylarining har bir jarayoni (kelin kuzatish, yuz ochdi, kuyovni kutib olish, kelin tanishuvi va b.) qo‘shiq orqali o‘z tasvirini topadi. Ularning hammasi ma‘lum vaziyat bilan bog‘liq holda ma‘lum vazifalarni bajarib kelgan - tantanani ochilishi (tantanavor, tabrik - To‘y muborak, Al muborak), kuzatish, maqtov (Yor-yor va O‘lan), qutlov (kelin va kuyov qutlovi), tanishuv, nasihat (Salomnoma, Hazor alik), hazil toifa (Aytishuv). To‘y marosim qo‘shiqlari vohaga xos janrlar tarkibidan iborat, ularning har biri mavqei, mazmuni, shakli va, ayniqsa, kuy-ohang tuzilmalari bilan ajralib, ushbu esa she‘r ma‘nosi va voha shevasi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. To‘y qo‘shiqlari mavzu, mundarija, ijro uslubi (yakka yoki guruh), ijrochilar tarkibi va voqeabandligi bilan farq etadi. Guruh qo‘shiqlari orasida Yor-yorlar, yakkanavoz qo‘shiqlar - To‘y muborak, Qutlovlar, yakka-guruh qo‘shiqlari - Al muborak, Salomnoma, Hazor alik; dialog qo‘shiqlar orasida (lapar shaklida) - Aytishuv (galma gal yakka yoki guruhlar orqali)lar ayollar tomonidan ijro etilib kelingan.

Surxon vohasiga xos qo‘shiq ham mavjud. Jumladan, “Shohi naqshband”, “Ohuva”, “Huyollo” kabi qo‘shiq va aytilimlar diqqatga sazovor. “Ohuva” yoki “Shohi naqshband” qo‘shiqlari nikoh to‘ylari

²⁶ Alaviya M., Ro‘zimboev S. Yor-yor, kelin salomlar, o‘lanlar, yo‘qlovlar. - T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987.
29

(ayrim joylarda boshqa to'y marosimlar tarkibiga kirgan)da ijro etilgan bo'lsa, "Huyollo" yoki "Huyya" qo'shiqlar erkaklar tomonidan jo'rsiz beixtiyor nevarasini tizzasiga olganda avaylab uxlatayotgan alladir. Matni, mazmuni va, ayniqsa, musiqiy tili bilan o'ziga xoslik bilan talqin etiladi. To'y marosim qo'shiqlari "voha ohang lug'ati"ni yana boyitib, uni yangi sifat ohangi sifatida voha aholisi tafakkurining sirli mo'jizalari sari yetaklaydi.

Mavzuga oid savol va topshiriqlar:

1. Oilaviy marosim qo'shiqlari qaysi jihatlari bilan mavsumiy marosim qo'shiqlaridan farq qiladi?
2. Qanday qo'shiqlar oilaviy marosim qo'shiqlari deyiladi?
3. To'y marosimi qo'shiqlarini tasniflang!
4. To'y marosimi qo'shiqlaridan namunalarni ijro eting!

§2.2. AZA-MOTAM VA OILAVIY-MAISHIY MAROSIM AYTIMLARI

O'zbek xalqida insonning o'limi va dafn odatlari bilan bevosita bog'liq bir qancha marosimlar mavjud: marhumni "mehmon qilish" ("qora osh" tortish), yig'i marosimi, marhumning gunohini olish marosimi, chiqarish, ko'mish marosimiga qatnashish, oxirgi marta vidolashuv, ta'ziya izhor etish ana shular jumlasidandir. Qadimgi rimlik buyuk mutafakkir va notiq Sitseron marhumni ko'mish marosimiga qatnashish - inson faoliyatining tojidir, degan edi. Mashhur ingliz olimi Djon Doni motam qo'ng'irog'i chalinayotgan ekan, u senga ham taalluqli, deb ta'kidlagan. U bilan tanishmi, begonami iloji boricha dafn marosimiga ishtirok etish lozimligini uqtirgan.

Inson olamdan o'tgach, bajarish kerak bo'lgan bir qancha rasm-rusumlar va marosimlar mavjud (marhumning gunohini sotib olish, janoza namozini o'qish, chiqarish, qabristonga olib borish, dafn qilish va boshqalar). Islom dini aqida va qoidalariga ko'ra, marhumni faqat janozadan keyingina dafn etish mumkin, aks holda g'ayridin qatorida ketadi, deb hisoblanadi. Marhumni xotirlash marosimlari Ramazon va Qurbon Hayitlari kunlari ham o'tkaziladi. Chunonchi, O'rxun-Enasoy yodgorliklari qabr toshlariga bitilgan yozuvlar o'n besh asrdan buyon saqlanmoqda. Toshlariga marhumning kimligi, yashagan vaqti, yozilgan. Toshdagi yozuvlardan "tangri", "turk" degan so'zlarni, motam marsiyalarini o'qish mumkin²⁷.

Tog'li O'shor qishlog'ida hayotdan erta ko'z yumgan farzand jasadi qoshida musibatza ona shunday yig'laydi²⁸.

Voy bolam-a, voy bolam,

Gul eding, xazon bo'lding, bolam.

Olgan yoringni qaritmading, bolam,

Mingan otingni horitmading, bolam.

"Yig'i" kuyi dramatik xarakterda bo'lib, kuychan tuzilmada, lekin tersiya oralig'ida qurilgan. Tovushlar bosqichma-bosqich harakatda bo'lib, erkin mungli uslubda xonish tarzda ijro etiladi. Og'ir motamsimon yig'i kuyi yakka holda aytilib, yig'ichining fojiaiy musibati qo'shib ifodalanadi.

San'atshunoslik fanlari doktori, professor R. Abdullayevning 2003-2004-yillari Boysun ilmiy ekspeditsiyasi materiallarida yozishicha, dafn marosim aytimlari - "Yig'i", "Go'yanda" hali hanuz Boysun

²⁷ Javliyev T. An'analar - hayot sabog'i. - T.: O'zbekiston, 1992. 76-77-b.

²⁸ Ochilov A., Muzaffarzoda I. O'shor. - Termiz: Jayxun, 2000. 50-b.

kundalik hayotida keng iste'molda bo'lib kelmoqda. *Motam ohangidagi "go'yanda"* alohida qo'shiq shakliga ega. *Hayotdagi u yoki bu* holatni yoki hodisani hikoya qilgan holda *qo'shiq ijrochining* unga bo'lgan munosabati, his-tuyg'usi va *kayfiyatini izhor etgan*. Yaqin-yaqingacha *"go'yanda" guruh bo'lib ijro etiluvchi "Sadr"* (xuddi qo'shiq ohangiga mos raqs xarakterlari bilan uyg'unlashib ketadi) marosim holatini qayta gavdalandirib, zaruriy, hissiy ohang yaratadi.

Darbandliklarning dafn marosimlari ham o'ziga xos bo'lib, o'zbeklarning dafn marosimlaridan keskin farq qiladi. O'zbeklarda rusum bo'lgan marhum dafn etilgandan keyingi uchlik, yettilik, yigirmalik, qirqlik kabi marosimlar o'tkazilmaydi. Ular marhum vafot etgach, uch marta ketma-ket payshanba kuni jumalik o'tkazadilar. Vafot etgan kun janoza, oxirgi jumaligi "Azobi baroran" deyiladi.

Boysundagi "Cho'yanchi" mahallasida dafn marosimlari o'zgacha. Marhumni dafn etish ham o'ziga xos xususiyatga ega. Marhum vafot etgan kuni uning yaqinlari qattiq aza tutishadi, tojiklarga o'xshab, sochini yulib, betini tirnab yig'lamaydilar. Agar urug' vakili yaylovda o'lgan bo'lsa, o'sha yerda katta qo'y so'yilgan. Chunki uzoq joydan janozaga odamlar kelib, yettisini o'tkazganlar. Mazkur urug' urf-odatlarini bo'yicha qattiq aza tutish nojoizdir.

Boysun atrofidagi Poygaboshi qishlog'i dafn marosimlarida esa ayollar "sadr" qilgan, ko'k libosni kiygan va sochini yulib yig'lagan, yosh bolalarni esa sochini olishgan.

Yig'illarda inson qalbidagi armonlar, vafot etgan kishining mehri aks etadi. Vohaning aytuvchi aytib, qolganlar unga jo'r bo'lib sadr tepib yig'lash hollari Darband, Poshxurt, Zarabog', Sayrob kabi qishloqlarda kuzatiladi.

Otasi o'lganda aytiladigan "yig'i" aytimi:

Kiygan to'ning yalangqat, voy otam,

Jon saqladi omonat, voy otam.

Omonat joning bor ekan, voy otam,

Kimga berding omonat, voy otam!

Voy otam-yey, voy otam!

Denov tumanidagi Sina qishlog'ida motam marosimlarida maxsus g'amli ohangda fig'onu nola qilishadiki, u qo'shiqqa o'xshab sado beradi. Buni asosan, ayollar ovoz chiqarib aytishganida yaxshiroq anglash mumkin. Bundan tashqari alohida shaxsning vafotiga bag'ishlab maxsus she'rlar aytiladi, ularni "marsiya" deyishadi. Bunday marsiyalar har xil bo'lib, turli she'riy shakllarda aytilgan. Bu marsiyalarda vafot qilgan shaxsning yaxshi fazilatlarini aytuvchining g'amu-anduhi, baland

ehtiros va hayajon bilan ifoda etiladi. Sina qishlog'ida to'lik tojik millatiga mansub aholi yashashi sababli, marsiyalar tojik tilida aytiladi. Farzand vafotida aytiladigan marsiya:

Vo balam, vo balam, vo balam,

Monda rafti bar dili man sad alam,

Ro'zu shab du chashmi man gardida nam,

Ro'i qog'oz xun bigirad in qalam,

Komili shirinzabonam, vo balam.

Vo balamo, vo balamo, vo balam.

Bu marsiyalarning kuy tuzilishi erkin uslubda, rechitativ-xushohang tarzda. Diapazoni kichik, lekin har bir bo'g'in ohang sifatida cho'zilib aytiladi. Kuy tuzilmasi so'z matnining ikki misrasidan iborat, ohangi yuqori sekunda oralig'ida qurilgan.

Odatda bu qishloqda mayit chiqqan xonadonda ko'proq ayollar yig'lab nola qilishadi. Ular alohida aytilgan marsiyalar bilan bir qatorda o'zlari vaznu qofiyasi bo'lmasa ham so'zlar aytib fig'onu nola qilib jo'r bo'lishadi. Natijada g'amgin navhalar vujudga keladiki ular adabiyot va san'atdan xoli emas. Biz bunday aytilgan so'zlarni to'liq she'riy qonun-qoidalarga rioya etilmasdan aytilgani uchun "navha" dedik. Masalan, xonadon egasining onasi vafot etganda aytiladigan yig'i so'zlari:

Mehrubonam buded, modaram, (ochem yoki onem),

Ko'rg'oni mo buded, modaram, (ochem yoki onem).

Davlati saram, modaram, (ochem yoki onem),

Duri noyobam, modaram, (ochem yoki onem).

Bu qishloqda boshqa qishloqlarda kam ko'zga tashlanadigan marosimlar mavjud. Masalan, odam vafot qilganining uchinchi kuni "Sarsho'yon" ("Bosh yuvish"), 17, 18 yoki 19 kuni "bist" ("yigirma"), qirqinchi kuni "chil" (qirq) beriladi. Bunday marosimlarda ko'proq ayollar kelishadi (erkaklar kelib fотиha o'qib ketadilar). Kelganlardan (ko'pincha qarindoshlar, qo'shnilar, azadorlar taklif qilinadi) so'zga chechanrog'i marosimni boshlab, vafot etgan kishining yaqin qarindoshlari (onasi, opasi, singlisi, xolasi)ning ismini aytib, vafot etgan kishining yaxshi sifatlarini aytib, "endi u yo'q, endi nima qilamiz"- deya ovoz chiqarib yig'laydi. O'shaning nomini tilga olingani unga javoban o'lgan kishining sifatleri, endi topilmasligi, bunday ishlar taqdir - azaldanligini aytib yig'laydi. Boshqa yig'ilgan ayollar "huvv" - deya ularga jo'r bo'lishadi:

Go'yanda (aytuvchi): *Quvvati dili mo budy dodarame,*

Mo be quvvati dil chi kor mekuneme,

Guyotone, xoharone? (aytinglarchi singillar?)

Xoharon (singillar): *Mo be quvvati dil kujo mereme,*

Mo be dodar chi kor mekuneme.

Zanon (yig'ilgan ayollar): *Huvv!...*

Go'yanda ana shunday tarzda vafot qilgan kishining boshqa yaqin qarindoshlarini tilga olib, so'zlaydi va bir necha soat fig'onu nola qilib marosimni davom ettiradi. Aytim aytishuv shaklida ("savol-javob"ga o'xshash) rechitativ holatda kuylanadi - to'g'risi nola qilib yig'lanadi. Rivojlanish ijro uslubi va ritmik usulidan hosil bo'ladi. Autentik holda ijro etilgan aytim o'zining ta'sirchanligi va chuqur dramatik holati bilan ajralib turadi. Ushbu aytim-aytishuvlar aza-motam marosimlarda faqatgina Surxon vohasiga xosdir va ovoz chiqarish kabi nolalar o'zining qadimiyligini namoyon etadi.

"Yig'i-yo'qlov"lar ramziy tasviriy vositalarga boy bo'lib, ularda g'angusoridan ayrilgan kishining kuyib, o'rtanib aytgan qo'shiqlari tinglovchi ko'nglini g'oyat qattiq larzaga soladi, hayajonlantiradi²⁹.

Marsiyalarning asosiy vazifasi hayotdan ko'z yumgan shaxsning butun fazilatlarini esga olib, ro'y bergan musibatga munosabat bildirishdir. Shuning uchun ota, ona, aka, uka, bola kabi qarindosh-urug'ni munosabatlari marsiyalarda, yig'i aytimlarida alohida tilga olinadi. Marsiyalarda, yig'i aytimlarida o'kinch, hasrat ifodasi alohida o'rin tutadi³⁰. Xullas, o'zbek xalq yig'ilarining mavzulik doirasi keng bo'lib, unda xalqning maishiy, ma'naviy hayoti, inson umrining falsafiy mohiyati, o'limning shafqatsizligidan nolish kabi ohanglar badiiy ifodasini topgan. Maraka yoki motam marosimlari inson hayotining barcha iker-chikirlarini unutadi. Marhumni xotirlaydi, hayot-mamotni taqqoslaydi, yashashning mohiyatini o'ylaydi, shunday qilib, o'zining insoniy burchini astoydil o'tashga urinadi. Motam marosimida - "marsiya", "yig'i", "yo'qlov", "bo'zlov", "sadr" kabi aza aytim-qo'shiqlari jo'r bo'ladi va mungli motam kuylari ijro etiladi.

Xulosa qilib aytganda, aza-motam marosimlari yig'i-yo'qlov aytimlari, marsiya qo'shiqlari ham Surxon voha aholisi orasida keng tarqalgan bo'lib, vafot etganlarning oila a'zolari, yaqin qarindoshlari tomonidan marosim doirasida aytiladi. Bu marosimlarning ham alohida ijrochilari - yig'ichi, go'yandalari bo'lib, u har bir kishining o'ziga atab, uning sha'niga bag'ishlab yaxshi sifatlarini qo'shgan holda, motamdorlarning o'rtasiga tushib aytadi. Aza-motam aytim-qo'shiqlari badiiy yuksak, tili sodda, iboralari o'tkir, kuylari mungli va ko'pchilikni

²⁹ Kazzoqov X., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: Sharq, 2001. 93-b.
³⁰ Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1980. 95-b.

yig'lata oladigan, badihago'ylik va erkin uslubida, fojiaiy va dramatik ta'sirli bo'ladi.

Dafn va motam marosimlarining ham o'ziga yarasha an'analari bo'lib, insonni qadrlash, so'nggi vido vaqtida bir xizmat qilib qolish har kimning burchi sanaladi. Aza-motam marosimlari va ularda ijro etiladigan marosim aytim-qo'shiqlari o'zining an'anaviylik xususiyatlarini yo'qotmagan holda, hamon o'zining eng qadimiy ohangini saqlab kelmoqda.

So'z afsuniga asoslangan o'zbek xalq marosimlaridan biri "badik"dir. "Badik" - so'z sehri orqali kishilardagi turli xil xusumatlarni ketkazish. Ibtidoiy ajdodlarimiz faoliyatining xilma-xilligi so'zning sehr-jodu qudratiga asoslangan o'zbek marosimlarining janrlar to'plami rang-barangligida ham ko'rinadi. O'zbek xalqining bunday tasavvurlari ichida ruhlar haqidagi qarashlar alohida o'rin tutadi. Badik gul, gulafshon yoki ko'ch-ko'ch kabi atamalar bilan yuritiluvchi, kishi tanasiga qizilcha va boshqa har xil toshmalar toshganda ularni daf qilish maqsadida o'tkazilgan marosim nomidir³¹.

Shu marosimda aytilgan "Badik" aytimi ijrochi tomonidan rechitativ tarzda, cholg'u jo'rlogisiz, kalta diapazonda (ayrim joylarda faqatgina bir tovushdan iborat kuy tuzilmada) aytilib kelingan. Asosan, so'z kuchi va ta'siriga e'tibor qaratilgan bo'lib, marosim bemor bola yoki uy jonivoriga bag'ishlangan bo'ladi.

Surxon vohasida keng tarqalgan ushbu folklor namunalari turli shart-sharoitda, turli munosabatlar bilan ijro etiluvchi xilma-xil janrlardan iborat, ammo kuy va so'z mutanosibligiga asoslangan "badik" janri hamisha davolash vazifasini bajarib kelgan. Badik yosh bolalar (o'tmishda kattalar ham) "tanasiga suvchechak, qizilcha yoki eshak yemi toshganda, ularni davolash uchun ijro etiladigan maishiy marosim aytimlarining mustaqil janridir"³².

Surxon vohasida oila sharoitida badik ijrochilari orasida ayollar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular ijro etgan badik aytimlari rechitativ tarzida bir tovushlik ohang yoki tersiya oralig'idagi rechitativ kuy tuzilmasida aytiladi.

Badikning har bir bandi quvishga qaratilgan so'zlar bilan boshlanadi - "ko'ch-ko'ch", asosiy maqsad - kasallikning bemor tanasini tezroq tark etishiga ko'mak berishdir. Shuning uchun ham badik quvilar ekan, uning ko'chish joyi birma-bir sanab o'tiladi:

³¹ Yo'ldosheva S. Xalq urf-odatlari va an'analari. - T.: Ijod yo'li, 2003. 66-67-b.
³² Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. - T.: Fan, 1986. 151-b.

*Ko'ch-ko'ch, badik, ko'chasan.
Ko'char yering men aytsam,
Momo bo'lsang, ko'lga ko'ch,
Ziyon bo'lsang, cho'lga ko'ch,
Arvoh bo'lsang, go'rga ko'ch.*

Badik nafaqat o'zbeklar o'rtasida, balki qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz va boshqa turkiy xalqlar orasida ham keng tarqalgan bo'lib, ular orasida ayrim so'z, ijro uslubi va marosim tarkibi o'tkazilishi yaqinligi va o'xshashligi seziladi. Bu turkiy xalqlarning o'tmishda bir xil ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy shart-sharoitda yashaganligidan, ularning tabiat hodisalariga bir xil nuqtai nazardan qaraganligi, masalan, animistik qarashlarida mushtaraklik mavjudligidan dalolat beradi³³. O'zbek oilaviy-maishiy marosim janrlaridan hozirgi kungacha voha aholisi orasida keng tarqalgan "kirna (kinna)", "alas", "qushnosh", "Bibi seshanba", "mushkulkushod", "chiltan", "chaqmoq" kabi marosim aytimlari keng qo'llaniladi. Ular hammasi so'z afsuni bilan bog'liq holda ijro etilib kelingan va, asosan, davolanish, bemorga dalda berish maqsadida o'tkazib kelingan.

Kinna yutoqib qaraganda, yaxshi ko'rganda, qaddi-qomati, husni-chiroyiga suqlanib qaraganda inson tanasiga kiradi. Kinna kirgan odam o'zini holsiz sezib, bemor holiga tushib qoladi. Mana shunday bemorlarni ruhiy davolovchilar - kinnachilar deb aytiladi. Bolalarni "suq" yoki "kinna"dan asrash maqsadida "tumor" taqiladi. Kinnachilar so'z va uning sehrli qudrati orqali, narsalar vositasida pirlarga murojaat etib kinna quvishga kirishadilar. Kinna silash uzoq ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan marosimdir (bu haqda ayrim tadqiqotchilar ham o'z fikrini berishgan³⁴).

Nokasniki nosniki,

Yo'lda yurgan pesniki,

Chiq badbaxt, chiq badbaxt.

Mening emas, kinnachilarning qo'li:

Un yalagan allobga bor,

Boyning qizi erkaga bor.

Och qolgan bo'lsang, nonga bor,

Suvsagan bo'lsang, suvga bor.

Tuzsiragan bo'lsang, tuzga bor,

Ha, chiq, chiq, chiq, chiq.

Qon yalagan qassobga bor,

Kinnachi shaxsiyatining tanlanishida B.Sarimsoqovning nashriga tayangan holda, ikki xil yo'l bilan amalga oshirilgan:
1. Nasliy yoki kasbiy (avloddan-avlodga, otadan o'g'ilga kinnachi kasbini qabul qilish);

³³ Sarimsoqov B. Ko'rsatilgan asar. 161-165-b.

³⁴ Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. - T.: Fan, 1986. 183-184-204-208-b.

2. Lokal yoki mahalliy (biror shaxsning o'z qobiliyatiga qarab kinnachilik kasbini o'zlashtirishi va uni vaqti kelganda o'tkazish)³⁵.

Kinna marosimi o'tkazish tartibi, harakati, so'z mazmuni va ijrochi shaxsiyati bilan ajralib turadi. Kinnachilarning fikricha, oziq-ovqat orqali tanaga kirib olgan kinna dastlab kishi qornida og'riq qo'zg'aydi. Qorinda og'riq qo'zg'alganda, ayrim kinnachilar bemorning qornini yalang'ochlab, bosh barmog'ini magik qudratga ega deb ... kindik chuqurchasida soat millarining harakati yo'nalishida aylantirib kinna tekstini takrorlayveradi³⁶.

Qadimdan "alas" kishi biror narsadan bemahalda, to'satdan qo'rqsa yoki biror joyga namozshom payti to'satdan yiqilsa qilinadigan marosim ibodatidir.

Alas ba'zi joylarda xalas, xalos, qora alas, ko'ch deb yuritiladi. Alasda aytiladigan so'zlar orqali bemor shu darddan xalos qilingan. Alas qilinadigan paytda quyidagi so'zlar aytiladi:

Xalos-xalos, guli balodan xalos,

Ins xalos, jins xalos,

Qoqib soldim qoqinsin,

Ey badbaxt, ko'ch,

Siqib soldim silkinsin,

Ey badbaxt, ko'ch,

Ko'z xalos, suq xalos,

Ey badbaxt, ko'ch.

Qora alas (xalos) ins-jinsdan, o'liklar qo'rqitishidan xalos qilinadigan ibodat marosimdir. Marosimda uch yoki besh xil latta yoqilib bemorning boshi uzra chapdan o'nga, o'ngdan chapga aylantiriladi. Agar bemor o'likdan qo'rqan bo'lsa o'lgan kishining biror narsasini yoqib, uch joyga ko'chirib xaloslaydi va quyidagi so'zlar aytiladi:

Ko'ch xalos, ko'ch xalos,

Ko'chmasang, senga la'nat,

Ko'chirmasam, menga la'nat.

Olov otash pirim shu odam tanasidagi qilingan ilmu-amal, sehru-jodu, ziyon-suqlarni otashda kuydirib ko'chiring. Yovuz ruhlarni zanjirband qilib osmonga ko'tarib yoqib yuboring. Tanasiga yengillik, tinchlik bering:

Hoy badbaxt,

Ko'ch badbaxt,

Ko'ch badbaxt - deb besh yoki yetti xil mevali daraxt novdalari bilan urib, bemor yuziga chiltan suv sepiladi.

³⁵ Sarimsoqov B. Ko'rsatilgan asar. 187-b.

³⁶ Sarimsoqov B. Ko'rsatilgan asar. 187-189-b.

Ko'ch hamma *narsada bo'ladi: shamol* chirokda, qora xalosda, qaytarma chiroqda, ziyon chiroqda, chiltan chiroqda, bosh og'riq chiroqda, toq Sulaymon boboga atalgan chiroqda va hokazo.

Toq Sulaymon boboga o'tkaziladigan chiroq (marosim) tartibi: suprada un, chovgum (oftoba) suvi bilan, ichiga cho'p qo'yiladi. Uzun qilib paxta eshilib, yog'lanib, chovgum ichidagi cho'pga qo'yib yoqiladi va quyidagi so'zlar aytiladi:

Toq Sulaymon bobo,

Taxtingizdan aylanay.

Suvda yurgan Sulaymon bobojonim,

Suvingizdan aylanay.

Toqa kunda, toqa oyda,

Hazil-xuzul qilmangizlar,

Zalal zabit qilmangizlar.

Aylanayin toq Sulaymon bobojonim,

Taxtingizdan aylanayin.

Suvda yurgan Sulaymon bobojonim,

Sharqiragan suving bor,

Turqiragan tuving (toshing) bor.

Hazrati toq Sulaymon bobojonim,

Sizdan madad tilayman,

Pir-piragan tutuningizdan,

Sharqiragan suvingizdan.

Pirillagan shamollaringizdan aylanay.

O'tgan bo'lsa o'tin qiling, kechgan bo'lsa kechiring, - deb chiroq yoqilib turiladi. Ushbu alas marosimi aytimi Denov tumani Sh.Xudoynazarov nomli jamoa xo'jaligida yashovchi Muhammadiyeva Muqaddas momodan yozib olingan.

Alas marosimi hozirgi kunda Surxon vohasining ayrim tumanlarida, jumladan, Boysun, Sherobod, Denov, Sho'rchi va boshqa joylarda nafaqat saqlanib qolgan, balki aholi orasida o'zining an'anasiga ko'ra ijro etilib kelinmoqda.

Ayrim qishloqlarda ko'zga biror narsa kirsam uchuq qilingan va chiltan (41 chiroq) marosimi ham o'tkazilgan.

*Uchuq, uchuq, uchuq, uchuq,
Qaynonasining burni puchuq,
Uchuq, uchuq, uchuq, uchuq,
Ola ko'zga cho'p tushdi,
Oladigan kishi yo'q.
Qora ko'zga cho'p tushdi,
Qaraydigan kiish yo'q.*

Ushbu "uchuq" matni Denov tumanidagi Tortuvli qishlog'ida yashagan

101 yoshli Xoldona momo Safarboy qizidan yozib olingan bo'lib, ijro deklamatsion tarzida aytilib asosiy e'tibor so'z magiyasiga qaratiladi.

Chiltan (41 chiroq) boboga o'tkaziladigan marosimda supra yoyilib, toshning ustiga paxtadan 41 pilik eshilib, yog'lanib yoqiladi va quyidagi so'zlar aytiladi:

*Aylanayin chiltanlar,
O'rgulayin chiltanlar.
Hammaga birday chiltan,
Ochilgan gulday chiltanlar*

Xalqimizning ko'p asrlik e'tiqodiy qarashlari, urf-odat va an'alarini o'zida saqlab kelayotgan marosim qo'shiqlari janrlar tasnifini belgilash, har bir janrning asoslari, kuy tuzilishi, ijro uslublari va, ayniqsa, musiqiy tilini tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, bu janrlar tarkib jihatdan ma'lum turkumlarga ajraladi. Bular orasida oilaviy marosimlar tarkibida marosim qo'shiq va aytimlari qadimgi ajdodlarimizning oila shart-sharoitlariga aloqador e'tiqodiy qarashlari, turmush kechinmalari, urf-odatlar va rasm-rusumlari bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lib, ana shu bog'liqlikda yashab keladilar. Oilaviy-maishiy marosimlar musiqasi hayoti vazifasiga ko'ra insonning tug'ilishi va chaqaloqlik davri marosim qo'shiqlari, to'y marosim qo'shiqlari, aza-motam marosim aytimlari va so'zning sehr-jodu qudratiga asoslanuvchi maishiy aytimlaridan iborat. Bu janrlarning vujudga kelishi, hayotiyiligini ta'minlab turgan omillar, *birinchidan*, insonning tug'ilishidan tortib to so'nggi dafn marosimigacha qo'shiq yoki aytim unga hamroh bo'lgan; *ikkinchidan*, xalq qayg'uli kunida ham, shod-xurramligida ham qo'shiq aytib kelgan. Barcha davrlarda, turli mavzularda yaratilgan qo'shiq-aytimlar o'z zamonasining mevasi bo'lishi bilan birga, uzoq o'tmishning tarixiy yodgorligi sifatida gavdalanadi.

Har bir marosimga xos qo'shiq-aytimlar o'zining mazmuni, tabiati, ijro uslublari, musiqiy qonuniyatlari va musiqiy tili-shevasi bilan ajralib turadi. Hatto ba'zi bir iboralariga *karab asosan* xotin-qizlar ijodi ekanligini, ular ayollar *qalbining ohu* nolasi, orzu-umidi, shodu xurramligini ifodasi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Marosim qo'shiqlari mazmuni, aytiladigan payti, ijrochilik xususiyatlari, ichki qonuniyatlari, musiqiylikiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Marosim qo'shiqlari uylanish to'ylarida, bola dunyoga kelganda, balog'atga yetguncha o'tkazilgan urf-odat va udumlarida, azamatam va davolanish marosimlari aytilib kelingan. To'y marosim qo'shiqlari - *yor-yor, kelin salom, o'lan, aytishuvlar, muborak, qutlov* kabilar bo'lsa, bolaga ism qo'yish, beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi va boshqalarda ijro etiladigan, ona bolasini uxlatish, ovutish paytida aytiladigan *alla va huyollo*; vafot etganlar azasida ijro etiladigan *yig'i, yo'qlov, marsiya, go'yanda, sadr*, so'z magiyasi bilan bog'liq bo'lgan *badik* aytilari nafaqat saqlanib, balki turli turmush sharoitlarida hozirgi kunda ham ijro etilmoqda. Har bir odat, marosim va an'ana o'zining tarixiy ildiziga, iqtisodiy zaminiga, ijtimoiy qarashlariga, g'oyaviy asosiga ega bo'lgani singari ular zaminidagi qo'shiq-aytimlar ham o'zining musiqiy tili, kuy-ohang, shakl va ritmik holatlariga ega va o'ziga xos ijro uslublari bilan ajralib turadi.

Mavzuga oid savol va topshiriqlar:

1. Go'yandalar tomonidan aytiladigan "sadr" qanday ma'noni anglatadi?
2. "Marsiya" so'zi qanday ma'noni bildiradi?
3. "Badik" so'ziga ta'rif bering!
4. "Alas" so'zining ma'nosini ayting!

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TAVSIYA ETILGAN QO'SHIQLARDAN NAMUNALAR.

Hay yor-yor

Shoshilmay

Hay yor - yor, yo - ring - man, kel - gin, yor, o'y - nay - lik.

Men se - ni sev - gan yo - ring - man, kel - gin, yor, o'y - nay - lik.

O'y - na, o'y - na, men ko' - ray, hay yor - yor, o'y - nay - lik.

Bo - shing - ga gul - lar o' - ray, kel - gin, yor, o'y - nay - lik.

Naqorat:

Hay yor-yor, yoringman,
Kelgin, yor, o'ynaylik.
Men sening sevgan yoringman,
Kelgin, yor, o'ynaylik.
Eshik oldi moshpoya,
Hay yor-yor, o'ynaylik.
Bargi boshingga soya,
Kelgin, yor, o'ynaylik.
Imlaganim bilmaysan,
Hay yor-yor, o'ynaylik.
Qichqirganim oshkora,
Kelgin, yor, o'ynaylik

Ariq bo'yi terakzor,
Hay yor-yor, o'ynaylik.
Qiz bola ham ginador,
Kelgin, yor, o'ynaylik.

O'yna, o'yna, men ko'ray,
Hay yor-yor, o'ynaylik.
Boshingga gullar o'ray,
Kelgin, yor, o'ynaylik.
Senga kelgan baloga,
Hay yor-yor, o'ynaylik.
O'zim ko'ndalang bo'lay,
Kelgin, yor, o'ynaylik

Naqorat takrorlanadi.

Aylansin yor, aylansin

Quvnoq

f
Ay - lan - sin yor, ay - lan - sin, qosh - la - ri qo - ra ay - lan - sin.
Shaf - to - li - zor i - chi - da, bo - dom qo - voq ay - lan - sin.
ff
Ya - qu, ya - qu, ya - qu - ya. De - vol us - ti - da de - vol.
de - vo - na bo' - sin a - kang. Bo - shing - da bal - xi ro' - mol,
ish - qing - da o'l - sin a - kang. Bo - shing - da bal - xi ro' - mol.
ish - qing - da o'l - sin a - kang. Ya - qu, ya - qu, ya - qu - ya.
ya - qu, ya - qu, ya - qu - ya.

Aylansin yor, aylansin,
Qoshlari qora aylansin.
Shaftolizor ichida
Bodom qovoq aylansin.
Yaqu, yaqu, yaqu-ya.

Devol ustida devol,
Devona bo'lsin akang,
Boshingda balxi ro'mol,
Ishqingda o'lsin akang,
Yaqu, yaqu, yaqu-ya.

Vo-velay

Cho'zibroq

Tom - da u - zum o - sil - si - ney, vo ve - lay, bal - do - g'i - dan
u - zil - si - ney, vo ve - lay. Dush - man yur - gan yo'l - lar - ga - ey
vo ve - lay. cha - qir ti - kan bo - sil - si - ney vo ve - lay.

Tomda uzum osilsin-ey, vo velay,
Baldog'idan uzilsin-ey, vo velay.
Dushman yurgan yo'llarga-ey, vo
velay,
Chaqir tikan bosilsin-ey, vo velay.

Qo'y kelar enishdan-e, vo velay,
Oyoqlari kumushdan-e, vo velay.
Endi bizdan umid yo'g'-e, vo
velay,
Joy beringlar behishtdan-e, vo
velay.

Terakning uchginasi-e, vo velay,
Pistaning puchginasi-e, vo velay.
Tili shirin bo'ladi-e, vo velay,
Bolaning kichkinasi-e, vo velay.

Ariq labini o'ydim-e, vo velay,
Chakkamga gullar taqdim-e, vo
velay.
Yorim yodinga tushib-e, vo velay,
Sog'inganda ko'p kuydim-e, vo
velay.

Kovushim

Sho'xroq

f

Ko - vu - shim, tang - la qu - shim. bog' lar - ni kez - gan ko - vu - shim.

Sab - za - i o - bi ra - von, tog' - lar - ni kez - gan ko - vu - shim.

Men ko - vu - shim - ni yo' - qot - dim la - qay - lar bo - zo - ri - da.

O'g' - ri - lar o - lib ket - di yo - xo - ti - ni, yo qi - zi - ga.

O'g' - ri - lar o - lib ket - di yo xo - ti - ni, yo qi - zi - ga.

Naqorat:

Kovushim, tangla qushim,
Bog'larni kezgan kovushim,
Sabzai obi ravon,
Tog'larni kezgan kovushim.

Men kovushimni yo'qotdim,
Laqaylar bozorida.
O'g'rilar olib ketdi,
Yo xotini, yo qiziga.

Kovushimning charimi
Ho'kizning o'rtan belidan.
Yirtilib, yorilishi,
Issiq-sovuqning zahmidan.

Kel, ey shonim

Shoshilmay

Naqorat:

Kel, ey sho - nim hoy, - hoy, kel ma - ni sho - nim hoy, - hoy.

Bir - gi - na jo - nim sen - ga qur - bon jo' - ra - jo - nim hoy, - hoy.

Boy - sun tog' - ning sha - mo - li yel - pir kim - ning ro' - mo - li

Boy - sun tog' - ning sha - mo - li, yel - pir kim - ning ro' - mo - li.

Ro' - mo - li - ga ya - rash - gan shil - di - ray - di tu - mo - ri.

Naqorat:

Kel, ey sho - nim hoy, - hoy, kel ma - ni sho - nim hoy, - hoy.

Bir - gi - na jo - nim sen - ga qur - bon jo' - ra - jo - nim hoy, - hoy.

A - riq la - bi - da dap - san, dap - san - ga suv - lar sep - sam.

A - riq la - bi - da dap - san, dap - san - ga suv - lar sep - sam.

Diy - do - rin - giz - ni ko' - rib qay - moq ye - gan - day bo' - sam.

Naqorat:

Kel, ey sho - nim hoy, - hoy, kel ma - ni sho - nim hoy, - hoy.

Bir - gi - na jo - nim sen - ga qur - bon jo' - ra - jo - nim hoy, - hoy.

Naqorat:

Kel ey shonim, hoy-hoy,
Kel mani shonim, hoy-hoy.
Birgina jonim senga qurbon
Jo'ra jonim, hoy-hoy.

Boysun tog'ning shamoli,
Yelpir kimning ro'moli.
Ro'moliga yarashgan,
Shildiraydi tumori.

Naqorat takrorlanadi...

Ariq bo'yida dapsan,
Dapsanga suvlar sepsam.
Diydoringizni ko'rib,
Qaymoq yeganday bo'lsam.

Naqorat takrorlanadi...

Boy bola

O'rtacha tez



A - ha, a - ha, a - ha, a - ha.
Ay - la - na - yin bo'-ying - da - ne boy bo - la a - ha,
a - ha, Ay - la - na - yin bo'-ying - da - ne boy bo - la
Boy-sun to - g'i qa - la - ma - cy boy bo - la yor-ning so - chi
u - la - ma - cy boy bo - la, Boy-sun c - li boy bo'l - sin - cy
boy bo - la, yo - mon - lik - ni ti - la - ma - cy boy bo - la.
a - ha, a - ha, Ay - la - na - yin bo'-ying - da - ne
boy bo - la Boy-sun tog'-ning qal' - a - si - cy boy bo - la
i - chi - da yo'q a - la - si - cy boy bo - la. O'z - be - gim - ning
u - lu - g'i - cy boy bo - la, shu Va - tan - ning bo - la - si - cy
boy bo - la. a - ha, a - ha, Ay - la - na - yin
bo'-ying - da - ne boy bo - la a - ha, a - ha, hey!

Naqorat:

Aha, aha, aha,
Aylanayin bo'yingdaney boy bola.

Boysun tog'i qalama, boy bola,
Yorning sochi ulama, boy bola.
Boysun eli boy bo'lsin-ey, boy bola,
Yomonlikni tilama-ey, boy bola.

Naqorat:

Boysun tog'ning qal'asi, boy bola,
Ichida yo'q alasi-ey, boy bola.
O'zbeginning ulug'i-ey, boy bola,
Shu Vatanni bolasi-ey, boy bola.

Naqorat:

Ketmon chopdi bulog'i-ey, boy bola,
To'dasiyu chorbog'i-ey, boy bola.
Etagidan ko'paysin-ey, boy bola,
Arimasin tirnog'i-ey, boy bola.

To'n tikish

Mayin, sekin

Te - gir-mon-ning shaq-sha - qa - si ta - ro - sha-dur,
bek a - kam - ga a' - lo to'n - lar ya - ro - sha - dur.
A' - lo to'n-ning ji - yak - la - ri so - ri bo' - lu - re,
to'n kiy-gan-ning no - mus bi - lan o - ri bo' - lur.
O - g'am to' - ni ko' - zim to' - ni, tik - lab, tik - lab ti - kay u - ni.
Yo - rim to' - ni jo - nim to' - ni, jo - nim be - rib ti - kay u - ni.
Te - gir - mo - ni ay - lan - ti - rar char - xi bor - dur.
To'n kiy - ma - gan, yor quch - ma - gan xo - ru - zor - dir.
Har qa - ti - ni si - lab siy - pab pax - ta sol - dim - ey,
zar yo - qa - li to'n kiy - gan - ni jon - dan suy - dim.
O'ng - dan qo - vo - g'im uch - di - ya, so - chim be - lim - ga tush - di - ya.
Chap - dan qo - vo - g'im uch - di - ya, yo - rim e - sim - ga tush - di - ya.

Tegirmonning shaq-shaqasi taroshadur,
Bek akamga alo to'nlar yaroshadur.
Alo to'nning jiyaklari sori bo'lur-ey,
To'n kiyganng nomus bilan ori bo'lur.

Og'am to'ni-ko'zim to'ni,
Tiklab, tiklab tikay uni.
Yorim to'ni, jonim to'ni
Jonim berib tikay uni.

Tegirmonning aylantirar charxi bordur,
To'n kiymagan, yor quchmagan xoru-zordur.
Har qatini silab-siypab paxta yozdim-ey,
Zar yoqali to'n kiyganni jondin suydin.

O'ngdan qovog'im uchdi-ya,
Sochim belimga tushdi-ya.
Chapdan qovog'im uchdi-ya,
Yorim esimga tushdi-ya.

Kim oladiyo shuginaniyo?

O'rtacha

Kim o - la - di - yo. shu - gi - na - ni - yo? Men o - la - ma - no, shu - gi - na - ni - yo.

Bo tir bo'l-sang ham o' zing ni ko'r sat, sho tir bo'l-sang ham o' zing ni ko'r sat.

G'a - jir bo'l-sang ham o' - zing - ni ko'r - sat, ep - chil bo'l-sang ham

o' - zing - ni ko'r - sat. O - lol - may - sa - no, shu - gi - na - ni - yo.

Ko'pchilik bo'lib:

Kim oladi-yo shuginani-yo?

Talabgor:

Men olaman-o shuginani-yo.

Hamma:

Botir bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,
Shotir bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,
G'ajir bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,
Epchil bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,
Ololmaysan-o, shuginani-yo.

Iroqi do'ppi

Sho'xroq
Naqorat:

I - ro - qi do'p - pi tik - mang - lar, yi - roq - qa ke - tar yi - git - lar.
Bo - dom do'p - pi ti - king - lar bog' - da yur - sin yi - git - lar.
Boq - qa kir - sam bo - qa - di, bul - bul qa - not qo - qa - di.
Lo - la - xon - ga ta - sad - duq, yu - rak - ka o't yo - qa - di.
Yo - rim tik - kan do'p - pi - si shaf - to - li sho - xi - da qol - di.
Bir so'z - ni be - ring jo - nim, ko'n - gil o - ra - da qol - di.
Qirq ko - ki - li be - li - da, ko'p - lar mush - toq yo' - li - da.
Che - var - lik - da ten - gi yo'q, ar - doq top - gan e - li - da.
Naqorat:
I - ro - qi do'p - pi tik - mang - lar, yi - roq - qa ke - tar yi - git - lar.
Bo - dom do'p - pi ti - king - lar bog' - da yur - sin yi - git - lar.

Naqorat:

Iroqi do'ppi tikmanglar,
Yiroqqa ketar yigitlar.
Bodom do'ppi tikinglar,
Bog'da yursin yigitlar.

Boqqa kirsam boqadi,
Bulbul qanot qoqadi.
Lolaxonga tasadduq,
Yurakka o't yoqadi.

Naqorat takrorlanadi...

Yorim tikkan do'ppisi,
Shaftoli shoxida qoldi.
Bir so'z bergin jonginam,
Ko'ngil orada qoldi.

Naqorat takrorlanadi...


Qirq kokili belida,
Ko'plar mushtoq yo'lida.
Chevarlikda tengi yo'q,
Ardoq topgan elida.

Naqorat takrorlanadi...



Qaynog'a va yanganing aytishuv qo'shig'i

O'rtacha



Qaynog'a



Yangasi:



Ko'paylashib:



Qaynog'a:

Andiringdan, yangajon,
Mandringdan, yangajon.
Kulcha yopib non yegan,
Tandiringdan yangajon.
Zar devolu palaging,
Un elagan elaging.
Xamiringni mushtlagin,
Og'rimasin bilaging.

Yangasi:

Andirimni, qaynog'a,
Mandirimni, qaynog'a.
Archa o'tin qizitgan,
Tandirimni qaynog'a.

Ko'paylashib:

Qallama patir,
Choppoti chotir.
Gijdai mujda,
Ko'mmayu qotir.
Pishir, pishir yangajon,
Pishir, pishir yangajon.

Qaynog'a:

Undan o'ting, yangajon,
Mundan o'ting, yangajon.
Orqasini oldirmay,
Nonni yoping, yangajon.
Tandiringni to'basi,
Jebalagan jebasi.
Xamiringni ko'tarsin,
Singlisi-yo opasi.

Yangasi:

Nondan oling, qaynog'a,
Suvga soling, qaynog'a.
Shirmoyini ivitib,
To'yib oling, qaynog'a.

GLOSSARIY

Baxshi-shoir- Do'mbira yoki dutor jo'rligida doston yo'llarini ijro etish bilan birga, turli mavzularda o'zlari ham she'r va dostonlar yaratuvchilar.

Beshqarsak- Cholg'u asbobisiz chapak chalib ijro etiladigan davra qo'shig'i, o'yini. Bu o'yin (raqs)da davradagilar chapak chalib ashula aytadilar. O'yinchi davra o'rtasida raqsga tushadi. Beshqarsak respublikamizning Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida to'y va sayil marosimlarida ijro etiladi.

Lola sayli- Erta bahor lola guli ochilganda bog`-dalalarda o'tkaziladigan bayram (sayil). Lola saylida aytiladigan ma'lum qo'shiq sayillari o'tkaziladi.

Ohang- Kuy-tovush ma'nosida kelib masalan, Xorazmda biror maqomning aytim (ashula) bo'limidan aytilayotganda ashulachi to'xtab, sozandalar tomonidan chalinadigan cholg'u parcha. Toshkent, Farg'onada ohang odatda kuy ma'nosida qo'llaniladi.

Sozanda- Musiqachi, biror cholg'u asbobida ijro qiluvchi-cholg'uchi.

Terma - O'zbek folklorining mustaqil janri bo'lib, uning yaratuvchilari baxshilardir. Ko'pchilik hollarda ular dostonlarning individual ijodi hisoblanadi. Pand-nasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi yoki tanqidiga bag'ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan 150-200, ba'zan undan ham ortiq misralargacha bo'lgan lirik, liriko-epik she'rlarga terma deyiladi.

Baxshi- Do'mbira, dutor, tor jo'rligida doston yo'llarini ijro etish bilan birga, turli mavzularda o'zlari ham she'r va doston yaratuvchi san'atkordir.

Folklor- termini inglizcha folk-xalq, lore-donolik so'zlaridan olingan bo'lib, xalq donoligi, donishmandligi, hunarmandligi, san'atkorligi ma'nolarini bildiradi.

Olqish - turkiy tillarda maqtash, sharaflash, yaxshi istaklar tilash kabi ma'nolarni anglatadi.

Navro'z - Markaziy Osiyo xalqlarida juda qadimdan keng nishonlanib kelinadigan bahor bayramidir. U bahorgi kun va tun tengligi paytida, ya'ni 21-22 mart kunlari nishonlanadi. Manbalarda keltirilishicha Navro'z uch yarim ming yillik tarixga ega.

Go'yanda - (forscha)-so'zlovchi, baxshi ma'nosida. 1. Xorazmda ashulachilar, ayniqsa maqom yo'llarini ijro etuvchilar. 2. Vafot etgan erkak yoki ayolning yaxshi xislatlarini, hayotdagi faoloyati va yetim qolgan bolalarning musibatlarini ashulaga solib, qo'shiq aytuvchi ayol.

Marosim - inson, oila, jamoa hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, umum qabul qilingan qoida-tartiblarga amal qilinadigan hayotiy tadbir. Rasm qilingan, odat bo'lgan ma'nolarni anglatib, jamoatchilik ishtirokida o'tkaziladigan katta tadbir ham marosim deyiladi.

Doston - nasr yoki nazmiy teksga asoslanib musiqa bilan aytiladigan poema, ertak, tarix v.b. Bu dostonlarning ko'p qismlari cholg'u asbobi do'mbira, dutor, tor jo'rligida ma'lum bir ohangda aytiladiki, buni doston yo'li deb yuritiladi.

Janr- Janr (fr.jenre-tur, uslub)-musiqa asarlarining turlari. Asarning tuzilishi, ijrochilarning tarkibi, xarakteri va boshqa holatlar bilan janrlar bir-biridan ajraladi va turlicha bo'ladi. Masalan drama, opera, maqom, simfoniya, uvertyura, poema, romans va hokazo.

Katta o'yin - Doira, nog'oralar, ba'zan surnay jo'rligida ijro etiladigan o'zbek raqslaridan bo'lib, tuzilishi syuita shaklida.

Lagan o'yin, tog'ora o'yin- Xalq cholg'u asboblari jo'rligida ijro etiladigan, Farg'ona vodiysi, shuningdek Toshkent va Tojikistonning ayrim joylarida keng tarqalgan qadimiy xalq raqslaridan. Lagan o'yinida raqqos har ikki qo'lida qayroq chalib boshiga qo'yilgan sopol laganni o'yin jarayonida beliga tushiradi va yana boshiga chiqazadi. Xorazmda bu o'yin "Kosa" o'yini deb ataladi.

Marosim qo'shig'i - Turli marosimlarda aytiladigan xalq qo'shiqlari.

Marosim musiqasi- Xalq orasida turli marosimlarda ijro etiladigan musiqa.

Naqorat - Qo'shiq yoki ashulaning bir necha bor qaytarilish qismi naqorat deyiladi.

An'ana - Ijtimoiy-madaniy merosning uzoq vaqt davomida odamlar otadan bolaga qoldiradigan, odatga aylangan, o'sha jamiyatning yoki ijtimoiy guruhning qadriyatlar tizimi qoidalariga bog'langan qismi. Masalan kosiblik, sozandalik, hunarmandchilik va hokazo.

Urf-odat - Ma'naviy hayot hodisasi, an'analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan, tarixan tarkib topgan tartib qoida. Masalan; salom berish, alik olish, mehmon kutish, kuzatish, uy-joylarni tozalash va hokazo....

Odat - O'rganish bo'lgan va muayyan vaziyatda bajarish individ uchun ehtiyojga aylangan hatti harakat. Ota-bobodan o'tib kelayotgan va kishilarga singib ketgan yoki yangidan singib borayotgan rasm-rusum, udum, tartib.

Arafa - Ro'za va qurbon oylarining oxirgi kuni.

Barot keldi - Yil boshi qadimiy yil bilan bog'liq mavsumiy marosimlardan biri.

Bayram - Xalq tomonidan ma'lum sanalarga bag'ishlab nishonlanadigan tantana.

Yo haydar - O'zbek dehqonlarining xirmon sovurayotgan paytida shamol chaqirish marosimi.

Choy momo marosimi - Yoz paytida shamolni to'xtatish maqsadida o'tkazilgan udum.

Madaniy meros - Avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlar, madaniy, ma'naviy bayramlar yig'indisi.

Shox moylar - Yerga ko'klamda dalaga qo'sh olib chiqqan dehqonlarning ho'kizlarning shoxini yog' bilan moylash udumi.

Navro'z bayrami - Quyosh hamal burchiga kiradigan kunni nishonlash odati.

Terma - o'zbek folklorining mustaqil janri bo'lib, uning yaratuvchilari baxshilardir. Ko'pchilik hollarda ular dostonlarning

individual ijodi hisoblanadi. Pand-nasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi yoki tanqidiga bag'ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan 150-200, ba'zan undan ham ortiq misralargacha bo'lgan lirik, liriko-epik she'rlarga terma deyiladi.

Baxshi - do'mbira, dutor, tor jo'rligida doston yo'llarini ijro etish bilan birga, turli mavzularda o'zlari ham she'r va doston yaratuvchi san'atkor.

Folklor termini inglizcha *folk* - xalq, *lore* - donolik so'zlaridan olingan bo'lib, xalq donoligi, donishmandligi, hunarmandligi, san'atkorligi ma'nolarini bildiradi.

Olqish - turkiy tillarda maqtash, sharaflash, yaxshi istaklar tilash kabi ma'nolarni anglatadi.

Navro'z - Markaziy Osiyo xalqlarida juda qadimdan keng nishonlanib kelinadigan bahor bayramidir. U bahorgi kun va tun tengligi paytida, ya'ni 21-22 mart kunlari nishonlanadi. Manbalarda keltirilishicha Navro'z uch yarim ming yillik tarixga ega

Go'yanda (forscha) - so'zlovchi, baxshi ma'nosida. 1. Xorazmda ashulachilar, ayniqsa maqom yo'llarini ijro etuvchilar. 2. Vafot etgan erkak yoki ayolning yaxshi xislatlarini, hayotdagi faoloyati va yetim qolgan bolalarning musibatlarini ashulaga solib, qo'shiq aytuvchi ayol.

Marosim - inson, oila, jamoa hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, umum qabul qilingan qoida-tartiblarga amal qilinadigan hayotiy tadbir. Rasm qilingan, odat bo'lgan ma'nolarni anglatib, jamoatchilik ishtirokida o'tkaziladigan katta tadbir ham marosim deyiladi.

Doston - nasr yoki nazmiy matnga asoslanib, musiqa bilan aytiladigan poema, ertak, tarix v.b. Bu dostonlarning ko'p qismlari cholg'u asbob do'mbira, dutor, tor jo'rligida ma'lum bir ohangda aytiladiki, buni doston yo'li deb yuritiladi.

Janr (fransuzcha *genre* - tur, uslub) - musiqa asarlarining turlari. Asarning tuzilishi, ijrochilarning tarkibi, xarakteri va boshqa holatlar bilan janrlar bir-biridan ajraladi va turlicha bo'ladi. Masalan: drama, opera, maqom, simfoniya, uvertyura, poema, romans va hokazo.

Katta o'yin - doira, nog'oralar, ba'zan sunray jo'rligida ijro etiladigan o'zbek raqslaridan bo'lib, tuzilishi syuita shaklida.

Lagan o'yin, tog'ora o'yin - xalq cholg'u asboblari jo'rligida ijro etiladigan, Farg'ona vodiysi, shuningdek, Toshkent va Tojikistonning ayrim joylarida keng tarqalgan qadimiy xalq raqslaridan. Lagan o'yinida raqqos har ikki qo'lida qayroq chalib boshiga qo'yilgan sopol laganni o'yin jarayonida beliga tushiradi va yana boshiga chiqaradi. Xorazmda bu o'yin "Kosa" o'yini deb ataladi.

Marosim qo'shig'i - turli marosimlarda aytiladigan xalq qo'shig'i.

Marosim musiqasi - xalq orasida turli marosimlarda ijro etiladigan musiqa.

Naqorat - qo'shiq yoki ashulaning bir necha bor qaytarilish qismi.

An'ana - ijtimoiy-madaniy merosning uzoq vaqt davomida odamlar otadan bolaga qoldiradigan, odatga aylangan, o'sha jamiyatning yoki ijtimoiy guruhning qadriyatlar tizimi qoidalariga bog'langan qismi. Masalan: kosiblik, sozandalik, hunarmandchilik va hokazo.

Urf-odat - ma'naviy hayot hodisasi, an'analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan, tarixan tarkib topgan tartib-qoida. Masalan: salom berish, alik olish, mehmon kutish, kuzatish, uy-joy tozalash va h.k.

Odat - o'rganish bo'lgan va muayyan vaziyatda bajarish individ uchun ehtiyojga aylangan xatti-harakat. Ota-bobolardan o'tib kelayotgan va kishilarga singib ketgan yoki yangidan singib borayotgan rasm-rusum, udum, tartib.

Arafa - Ramazon oyining oxirgi kuni va Qurbon Hayitidan oldingi kun.

Barot keldi - yil boshi, qadimiy yil bilan bog'liq mavsumiy marosimlardan biri.

Bayram - xalq tomonidan ma'lum sanalarga bag'ishlab nishonlanadigan tantana.

Yo haydar - o'zbek dehqonlarining xirmon sovurayotgan paytda shamol chaqirish marosimi.

Choy momo marosimi - yoz vaqtida shamolni to'xtatish maqsadida o'tkazilgan udum.

Madaniy meros - ajdodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ilmiy va diniy tafakkur, ruhiy qarashlar, madaniy, ma'naviy bayramlar yig'indisi.

Shox moylar - yerga ko'klamda dalaga qo'sh olib chiqqan dehqonlarning ho'kizlarning shoxini yog' bilan moylash udumi.

Fanga oid test savollari

1. Folklor atamasining ma'nosini aniqlang?
 - A. Xalq ijodiyoti
 - B. Xalq donishmandligi
 - C. Og'zaki xalq adabiyoti
 - D. Barcha javoblar to'g'ri*
2. Marosim qanday ma'noni anglatadi?
 - A. Oila hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan tadbir
 - B. Umum qabul qilingan qoida tartiblarga amal qilinadigan hayotiy tadbir.
 - C. Jamoatchilik ishtirokida o'tkaziladigan katta tadbir
 - D. Barcha javoblar to'g'ri*
3. "Alpomish" dostonining 1000 yilligi qaon qayerda nishonlangan?
 - A. 2000 yil Xorazmda
 - B. 1999 yil Termizda*
 - C. 1998 yil Samarqandda
 - D. 2001 yil Buxoroda
4. Biror shaxsning vafoti munosabati bilan yozilgan motam qo'shig'i qanday nomlanadi?
 - A. Maqol
 - B. Marsiya
 - C. Miskin
 - D. Marsiya*
5. Folklor janrlarini aniqlang!
 - A. Poeziya, nasr, lirika
 - B. Epik, lirik, dramatik*
 - C. Dramatik, poeziya, nasr
 - D. Lirik, epik, poeziya
6. Badik so'ziga ta'rif bering!
 - A. Motam aytimi

- B. So'z magiyasiga asoslangan marosim*
 - C. Sho'x qo'shiq
 - D. Lirik qo'shiq
7. Mo'chal to'yi qaysi yoshda o'tkaziladi?
 - A. 10-yoshdan 11 yoshga o'tganda
 - B. 12 yoshda 13 yoshga o'tganda*
 - C. 9 yoshdan 10 yoshga o'tganda
 - D. 13 yoshdan 14 yoshga o'tganda
 8. Kelin salom marosimi qachon o'tkaziladi?
 - A. Nikoh kechasi
 - B. Fotihadan keyin
 - C. To'ydan keyin*
 - D. Non sindirilgandan keyin
 9. "Boysun bahori" xalqo folklor festivali qaterda o'tkaziladi?
 - A. Farg'onada
 - B. Namanganda
 - C. Surxondaryoda*
 - D. Qashqadaryoda
 10. "Alla" qo'shig'i qaysi viloyatlarda bobolar tomonidan ijro etiladi?
 - A. Farg'ona, Namanganda
 - B. Surxondaryo, Qashqadaryoda*
 - C. Buxoro, Samarqandda
 - D. Sirdaryo, Jizzaxda
 11. Navro'z bayrami qachon nishonlangan?
 - A) Yozda
 - B) Kuzda
 - C) Qishda
 - D) Bahorda*
 12. Choy momo marosimi qaysi faslda o'tkazilgan?
 - A) Qish faslida
 - B) Kuz faslida
 - C) Yoz faslida*
 - D) Bahor faslida

13. Mavsumiy marosim qo'shiqlarini aniqlang!
 A) Yor-yor, Kelin salom, To'y muborak
 B) Yig'i, Marsiya, Sadr
 C) Sust xotin, Turna keldi, Halinchak*
 D) Barcha javob to'g'ri
14. To'y marosim qo'shiqlarini aniqlang!
 A) Qo'sh haydash, Halinchak, yozi
 B) Turna keldi, Kovushim, Lolacha
 C) Do'rsi-do'rsi, Havor, Bog'dagi uchrashuv
 D) Dashnobod aytishuvi, Yor-yor, Laylalo*
15. Laylalo qo'shig'i kimlar tomonidan ijro etiladi?
 A) Erkaklar tomonidan
 B) Bolalar tomonidan
 C) Ayollar tomonidan*
 D) Barcha javoblar to'g'ri
16. Sadr aytish qaysi marosimga kiradi?
 A) To'y marosimiga
 B) Mavsumiy marosimga
 C) Oilaviy marosimga*
 D) Barcha javoblar to'g'ri
17. Sust xotin qo'shig'i ilk bor qaysi folklor etnografik jamoasi tomonidan ijro etilgan?
 A) Quralay jamoasi
 B) Shiru-shakar jamoasi
 C) Boysun jamoasi*
 D) Bulbuli go'yo jamoasi
18. "Quralay" bolalar folklor jamoasi qaysi viloyatda faoliyat yuritmoqda?
 A) Jizzaxda
 B) Qashqadaryoda
 C) Samarqandda
 D) Surxondaryoda*

19. Kovushim xalq qo'shig'i qaysi viloyat folklor etnografik ansambli tomonidan ijro etilgan?
 A) Samarqand
 B) Farg'ona
 C) Qashqadaryo
 D) Surxondaryo*
20. "Bulbuli go'yo" bolalar folklor etnografik ansambli qaysi viloyatda faoliyat yuritmoqda?
 A) Buxoro
 B) Samarqand
 C) Sirdaryo
 D) Surxondaryo*
21. To'y va tantanalarda tarafma-taraf bo'lib, raqs bilan birgalikda ijro etiladigan voqeaband xalq qo'shig'i qanday nomlanadi?
 A) Yalla
 B) Lapar*
 C) Aytishuv
 D) Yor-yor
22. "To'ylar muborak" filmining musiqa muallifini aniqlang!
 A) Muxtor Ashrafiy
 B) Sulaymon Yudakov
 C) Yevgeniy Shirayev*
 D) Manas Leviyev
23. "Daryo toshqin" xalq qo'shig'i qaysi kinofil'mda ijro etilgan?
 A) Sen yetim emassan
 B) Toshkent-non shahri
 C) Maftuningman
 D) Shum bola*
24. "Sadr"- deganda nimani tushunasiz?
 A) Yig'ining bir shakli
 B) Yllaning bir ko'rinishi

- C) Raqsning bir ko'rinishi
- D) Aza-motam marosimi*

25. O'zbekistonda ilk bor folklor-etnografik ansambli qachon, qayerda tashkil etilgan?

- A) 1971 yil Farg'ona Toshloq tumanida
- B) 1978 yil Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida*
- C) 1981 yil Buxoro viloyati Qiziltepa tumanida
- D) 1980 yil Surxondaryo viloyati Boysun tumanida

26. O'zbekistonda birinchi tashkil etilgan folklore-etnografik ansambli nomini aniqlang!

- A) Shalola
- B) Gulyor*
- C) Dashnobod
- D) Oqar buloq`

27. 1997 yil Samarqandda o'tkazilgan "Sharq taronalari" 1-Xalqaro musiqa festivalida birinchi o'ringa sazovor bo'lga xonanda nomini aniqlang!

- A) Maryam Sattarova
- B) O'lmas Saidjonov
- C) Nasiba Sattarova
- D) Munojot Yo'lchiyeva*

28. To'y va sayil marosimlarida cholg'usiz chapak chalib ijro etiladigan davra qo'shig'i qanday nomlanadi?

- A) Lapar
- B) Yalla
- C) Beshqarsak*
- D) O'lan

29. O'zbekistonda biribchi bo'lib musiqa etnografiyasi bilan shug'ullangan san'atkor nomini aniqlang!

- A) Yunus Rajabiy

- B) Aleksey Kozlovskiy
- C) Georg Mushel`
- D) Viktor Uspenskiy*

30. Ramazon qo'shig'i qaysi marosim qo'shiqlar tarkibiga kirishini aniqlang!

- A) Mavsumiy marosim
- B) Oilaviy-maishiy marosim
- C) Yilnoma-taqvim bilan bog'liq marosim*
- D) Mavsumiy-mehnat marosimi

31. 21-mart Navro'z bayrami nechanchi yildan boshlab umumxalq bayrami sifatida nishonlanib, dam olish kuni deb e'lon qilingan?

- A) 1985 yil
- B) 1989 yil*
- C) 1990 yil
- D) 1991 yil

32. Oilaviy marosim qo'shiqlarini aniqlang!

- A. Turna keldi, Sust xotin, Lola qo'shig'i
- B. Q'o'sh haydash, Yozi, Mirxaydar
- C. Yor-yor, Kelin salom, Laylalo*
- D. Kovushim, Halinchak, Do'rsi-do'rsi]

33. Shox moylar marosimi qaysi paytda o'tkazilgan?

- A) Hosil yig'im davrida
- B) Yerni shudgorlash davrida*
- C) Ekin ekish paytida
- D) Barcha javob to'g'ri

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar. Toshkent kartografiya fabrikasi, - T., 2003. 94-b.
2. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: Sharq, 2001. 151-b.
3. Abdullayev R. Boysun tarixiy va madaniy qo'riqxonona // San'at. 2004..- №1. 28-32-b.
4. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. - T.: Fan, 10-11-b.
5. Абдуллаев Р.С. Байсун. Традиционная музыкальная культура. - Т.: ЮНЕСКО, 2006. стр.124.
6. Абдуллаев Р.С. Обряд и музыка в контексте культуры Узбекистана и Центральной Азии. - Т.: ШАРС, 2006. Стр. 340.
7. Jo'rayev Mamatqul. O'zbek mavsumiy marosim folklori. - T.: Fan, 2008. 3-b.
8. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. - М.: Наука, 1987. стр. 145.
9. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. 121-b.
10. Mirzayev T., Jo'rayev M. Asrlarni munavvar qilgan bayram Navro'z. - T.: Fan, 1992. 93-b.
11. Boboyev X., G'ofurov 3. Navro'z - eng qadimgi va navqiron ma'naviy qadriyat // Qonun himoyasida. - 2002. - №3. 31-33-b.
12. Jo'rayev Mamatqul. Navro'z bayrami. - T.: Fan, 2009. 231-b.
13. Umar Xayyom. Navro'znoma. - T., 1990. 54-b.
14. Qoshg'ariy Mahmud. Devonu-lug'atit turk. 3 tom. - T., 1963. 120-b.
15. Javliyyev T. An'analar - hayot sabog'i. - T.: O'zbekiston, 1992. 49-50-b.
16. Usmon T. Boysun tarixiga bir nazar. Boysun bayozi. - T.: Cho'lpon, 1996. - 135 b. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. - T.: O'qituvchi, 1994. 192-b.
17. Toshmatov O'. Folklor qo'shiqlari. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2003. 65-b.
18. Абдуллаев Р. Обрядовая музыка Центральной Азии. - Т.: Фан, 1994. Стр. 136.
19. G'ofurov H. Xalq o'yinlari, qo'shiqlari va an'analariga bir nazar. - T.: Kamalak, 1992. 44-b.
20. Ochilov A., Muzaffarzoda I. O'shor. - Termiz: Jayxun, 2000. 75-b.
21. Karomatov F. O'zbek xalqi musiqa merosi (XX asrda). - T.:

- Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. 152-b.
22. Toshtemirov N. Jizzax viloyati o'zbek xalq qo'shiqchiligi. SNO. - T.: SITI M(M) T- 25 №920. 1997. 60-b.
 23. Qurbonov S.X. Folklor musiqa O'qitish metodikasi. -T.; Ilm-ziyozakovat, 2021.
 24. Sunatillayev A.S. Folklor-etnografik jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. O'quv qo'llanma. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti. -T.; 2022.
 25. M.Naimov. Surxon qo'shiqlari I-qism. -Termiz, Jayhun nashriyoti, 1997.
 26. M.Naimov. Surxon qo'shiqlari II-qism. -Termiz, Jauhun, 2000 yil.
 27. M.Naimov. Sutxon qo'shiqlari III-qim. Toshkent, Yangi asr, 2010.
 28. M.Naimov. Folklor qo'shiqlari. -T.: Turon zamin, 2017.

MUNDARIJA

1.Oilaviy marosim qo'shiqlari va aytimlari.....	3
2.To'y marosim qo'shiqlari tasnifi.....	5
3.Hay yore, hay do'st qo'shig'i	9
4.Lay-la-lo qo'shig'i.....	10
5.Yor-yor, yorone qo'shig'i.....	13
6.Dashnabod naqsh aytishuv qo'shig'i	15
7.Huyollo qo'shig'i	19
8.Muchal qo'shig'i	21
9.Boysun yor yor qo'shig'i	25
10.Paxtaro gir qo'shig'i.....	27
11.Aza – motam va oilaviy maishiy marosim aytimlari.....	31
Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etilgan qo'shiqlardan namunalar.	
12.Hay yor – yor.....	41
13. Aylansin yor.....	42
14. Vo velay.....	43
15. Kovushim.....	44
16.Kel ey shonim.....	45
17.Boy bola.....	47
18.To'n tikish.....	49
19.Kim oladiyo shuginani – yo ?.....	51
20. Iroqi do'ppi.....	52
21. Qaynog`a va yanganing aytishuv qo'shig`i.....	54
22.Glossariylar	56
23.Fanga oid testlar.....	62
24.Foydalanilgan adabiyotlar.....	68

СОДЕРЖАНИЕ

1. Семейно-обрядовые песни.....	3
2. Классификация свадебных обрядовых песен	5
3. Песня «Хай ёре, хай дост»	9
4. Песня «Лай-ла-ло»	10
5. Песня «Ёр-ёр, ёроне»	13
6. Песня «Дашнабод накш айтишуви»	15
7. Песня «Хуёлло»	19
8. Песня «Мучал»	21
9. Песня «Бойсун ёр -ёри»	25
10. Песня «Пахтаро гир»	27
11. «Аза» - траурные и семейно-бытовые обрядовые Песнопение.....	31
Примеры песен, рекомендуемых для практического обучения	
12. Песня Хай ёр - ёр	41
13. Песня Айлансин ёр.....	42
14. Песня Во - вelay	43
15. Песня Ковушим.....	44
16. Песня Приди, моя дорогая.....	45
17. Песня Бой бола.....	47
18. Песня Тўн тикиш.....	49
19. Песня Ким оладиё, шугинани я?.....	51
20. Песня Ироки дуппи	52
21. Песня Қайноға ва янга.....	54
22. Глоссарии	56
23. Тесты	62
24. Литература.....	68

ABLE OF CONTENTS

1. Family Ritual Songs	3
2. Classification of Wedding Ritual Songs	5
3. Song "Hay yore, hay dost"	9
4. Song "Lay-la-lo"	10
5. Song "Yor-yor, yorone"	13
6. Song "Dashnabad Naksh Aytishuvi"	15
7. Song "Khuyollo"	19
8. Song "Muchal"	21
9. Song "Boysun Yor-Yori"	25
10. Song "Pakhtaro Gir"	27
11. "Aza" – Mourning and Family-Domestic Ritual Songs.....	31
Examples of Songs Recommended for Practical Training:	
12. Song "Hay Yor-Yor"	41
13. Song "Aylansin Yor"	42
14. Song "Vo – Velay"	43
15. Song "Kovushim"	44
16. Song "Come, My Dear"	45
17. Song "Boy Bola"	47
18. Song "Sewing the Wedding Robe (Tun Tikish)"	49
19. Song "Who Will Marry This Girl?"	51
20. Song "Iroqi Skullcap"	52
21. Song "Brother-in-Law and Bride"	54
22. Glossary	56
23. Tests	62
24. References / Bibliography	68

O'QUV QO'LLANMA

NAIMOV MUZAFFAR URINOVICH

OILAVIY MAROSIM
QO'SHIQLARI

Texnik muharrir : Ro'zimurod Axmedov
Sahifalovchi: Maftuna Uzaqova
Dizayner: Diyora Abduraxmonova

Tasdiqnoma № 495679. 21.11.2024.
Bosishga 2026-yil 28-fevralda ruxsat etildi:
Bichimi 60x84 1/8. Ofset qog'oz
—Times new Roman garniturasida ofset usulida bosildi
Nashr tabog'i – 4,625 Shartli bosma tabog'i – 2,3125.
Adadi 100 nusxa. Shartnoma №.25.02.2026
Buyurtma № 513



**UNIDO xalqaro tashkiloti sertifikatiga ega bo'lgan
"Classic" nashriyotida nashrga tayyorlandi**

Original maket Classic nashriyotida tayyorlandi.
150114, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar,
Aviasozlar ko'chasi 2-uy.
Telefon: (93) 507-52-72

Poligraf Super Servis MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
150114, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar,
Aviasozlar ko'chasi 2-uy

NAIMOV MUZAFAR O'RINOVICH



1962-yil 24-fevralda Surxondaryo viloyati, Denov shahrida ishchi oilasida tavallud topgan. 1981-yil Termiz shahridagi ixtisoslashgan san'at maktabi (oldingi Termiz musiqa bilim yurtini)ning "Xor dirijorligi" bo'limini, 1986-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi (oldingi M.Ashrafiy nomli Toshkent davlat konservatoriyasi)ning "Xor dirijorligi" fakultetini tamomlagan. Turli yillarda Denov tumanidagi 14-sonli Bolalar musiqa maktabida, Denov shahridagi 2-son Bolalar musiqa va san'at maktabida, Denov tumanidagi R.Uzoqova nomli pedagogika kollejida, Termiz davlat universitetida faoliyat yuritgan ustozlikdan rahbar lavozimlarigacha bo'lgan sharaflil yo'lni bosib o'tgan. 2018-yildan boshlab Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti (tashkil etilgan yili TerDU

Denov filiali)da fakultet dekani, kafedra mudiri, kafedra dotsenti sifatida faoliyat yuritib kelgan bo'lsa, 2022-yil dekabr oyidan hozirgi kunga qadar "Maktabgacha talim" kafedrasida professor vazifasini bajaruvchi lavozimida ishlab kelmoqda. Muzaffar Naimov 2000-yilda "O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. 2012-yilda Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan "Dotsent" ilmiy unvoni berilgan. 2013-yilda O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'ziligiga qabul qilingan.

Naimov Muzafar O'rinovichga Oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 31-yanvardagi qaroriga muvofiq san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasi berilgan. Uning 25 dan ortiq maqolalari respublika jurnallarida, ilmiy amaliy konferensiyalarida va chet el jurnallarida e'lon qilingan ("Tafakkur", "San'at", "Surxon qo'shiqlari" I-II-III, "Qalb navolari" qo'shiqlar to'plami, "Folklor to'plami", "Folklor qo'shiqlari jo'rsiz xor uchun" uslubiy qo'llanmasi, "Aziz ustozlar" nomli qo'shiqlar ijodkorlari" (I-II jild) uslubiy qo'llanmalari, oliygohlarning musiqa ta'limi yo'nalishlari uchun "Folklor qo'shiqlari" o'quv qo'llanmasi, "Surxondaryo istar", "Qadim Surxon navolari", "Metar navolari" kabi risolalari nashr etilgan. Oxirgi yillarda muallif samarali ijod qilib, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun adabiyot sifatida "Vokal ijrochiligi" (D.Avloqulov hammuallifligida), "Dirijyorlik asoslari" nomli, Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari uchun esa "Surxondaryo folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoalari" nomli o'quv qo'llanmalarini nashr ettirdi.

«ClassiC»
nashriyoti



9027

